

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**“SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH” KAFEDRASI**

**RAXMONOV SHOMUROD ROZIKOVICH**

**“SOLIQLARNING BUDJET DAROMADLARINI TASHKIL  
QILISHDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI”**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”**

“Soliqlar va soliqqa tortish”  
kafedra mudiri

i.f.d., professor Jo‘rayev A.S. \_\_\_\_\_

“ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2016 y.

**Bitiruvchi:** 5230800 – “Soliqlar va soliqqa tortish”  
ta‘lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi  
Rahmonov Sh.R. \_\_\_\_\_

**Ilmiy rahbar:** k.o‘q. Meyliyev O. \_\_\_\_\_

**TOSHKENT - 2016**

<b>MUNDARIJA</b>		
		<b>betlar</b>
<b>KIRISH.....</b>		<b>3-7</b>
<b>I BOB.</b>	<b>SOLIQLARNING BUDJET DAROMADLARINI TASHKIL QILISHINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....</b>	<b>8-27</b>
1.1	Davlat budjeti tushunchasi, uning mazmun-mohiyati va ahamiyati.....	8
1.2	Soliqlarning budjet daromadlarini shakllantirishining ilmiy-nazariy asoslari.....	18
<b>Birinchi bob bo'yicha xulosalar.....</b>		<b>26</b>
<b>II BOB.</b>	<b>DAVLAT BUDJETINING SOLIQLI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISH TARTIBINING TAHLILI (Mirzo-Ulug'bek tumani DSI ma'lumotlari asosida).....</b>	<b>28-48</b>
2.1	Soliqlarning davlat budjeti daromadlarini shakllantirishdagi o'rni va ahamiyatini tahlili.....	28
2.2	Davlat budjeti solikli daromadlarining guruhlanishi hamda amal qilish mexanizmi.....	34
<b>Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar.....</b>		<b>48</b>
<b>III BOB.</b>	<b>IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA SOLIQLARNING BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATINI OSHIRISH MASALALARI.....</b>	<b>49-62</b>
3.1	Soliqlarning budjet daromadlarini tashkil qilish jarayonidagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish.....	49
3.2	Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida soliqlarning budjet daromadlarini tashkil qilishdagi ahamiyatini oshirish masalalari.....	55
<b>Uchinchi bob bo'yicha xulosalar.....</b>		<b>62</b>
<b>XULOSA VA TAKLIFLAR.....</b>		<b>63</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>		<b>66</b>

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Mamlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar natijasida oxirgi yillarda mamlakatimiz milliy iqtisodiyoti yanada mustahkamlanib bormoqda. Eng avvalo mamlakatimiz xalqining munosib hayot darajasi va sifatini ta'minlash hamda rivojlangan demokratik davlatlar qatoridan o'rin olish yo'lida katta qadam tashlandi. Ushbu natijalarga erishish uchun mamlakatdagi tadbirkorlarga katta yo'l ochib berildi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat sektorining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashdagi roli katta ahamiyatga ega. Uning samarali faoliyatini amalga oshirish uchun davlat byudjeti daromadlarini etarli va uzluksizligi ta'minlash zarur hisoblanadi.

Mamlakatimizda soliq siyosatini erkinlashtirish va xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar yildan-yilga o'zining samarasini berib kelmoqda.

O'zbekistonda bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish, to'laqonli bozor iqtisodiyotini yaratish sohasida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar orasida budjet va soliq sohasidagi islohotlarni chuqurlashtirish, soliq tizimini soddalashtirish hamda soliq yukini sezilarli darajada engillashtirish masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Zero Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini tubdan oshirish, eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, fermer xo'jaliklari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining eksport faoliyatidagi ishtirokini har tomonlama rag'batlantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi<sup>1</sup>".

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi.-T. "Xalq so'zi" gazetasi. 2016y 18 yanvar.

Haqiqatdan ham bugungi kunda soliq siyosatini yanda takomillashtirish soliq yukini kamaytirish va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni soliqlar orqali rag‘batlantirish hamda qo‘llab-quvvatlashning muhim ustivor yo‘nalishi sifatida belgilanishi ushbu sohalarida bajariladigan vazifalarning o‘zaro uyg‘unligini ta‘minlab beradi. Xususan, milliy iqtisodiyotda soliq yuki darajasining oxirgi yillarda sezilarli darajada kamayishiga erishildi. Birgina 2015 yilning o‘zida iqtisodiyotdagi soliq yuki 20,5 foizdan 20,0 foizga tushirildi. Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8 foizga o‘sdi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8 foizga, qishloq xo‘jaligi – 7 foizga, qurilish-montaj ishlari hajmi salkam 18 foizgaga oshdi. Inflyasiya darajasi prognoz ko‘rsatkichidan past bo‘ldi va 5,6 foizni tashkil etdi<sup>2</sup>.

Bozor munosabatlarini shakllantirish jarayonida mamalakatning rivojlanish strategiyasi, iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlarini, ijtimoiy va madaniy sohalarini moliyalashtirish vositasini akkumulatsiyalash sezilarli darajada mamalakat moliyaviy holati va budjet tizimiga bog‘liq. Budjet munosabatlari doirasida davlat nazorati barqaror budjet faoliyatiga erishish uchun samarali soliq siyosati olib borilishini taqozo qiladi. O‘zbekiston ham o‘zining iqtisodiy rivojlanish statusi va ijtimoiy-iqtisodiy yuksalish strategiyasini aniqlab olgan va kuchli moliyaviy siyosat orqali soliq siyosatini yuritish hamda ta‘minlashga asosiy ustuvor vazifa sifatida qaramoqda.

Davlat moliyasini sog‘lomlashtirish, davlat budjeti daromadlarining barqarorligini, ularni shakllantirish manbalari mukammal nisbatini va butligini ta‘minlash O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan budjet-soliq tizimidagi islohotlarning hozirgi bosqichida yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

---

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma‘ruzasi.-T. “Xalq so‘zi” gazetasi. 2016y 18 yanvar.

Amalga oshirilayotgan soliq siyosatining samaradorligi ko'p jihatdan soliqqa tortish mexanizmining ishlashi va soliq qonunchiligining shaffofligiga bevosita bog'liqdir. Soliqlar va yig'implarning davlat budjeti daromadlarini shakllantirishdagi hissasini oshirish maqsadida esa, soliqlarni amaldagi undirish mexanizmini takomillashtirish va mavjud muammolarni bartaraf etish yo'nalishlarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Bizningcha, soliqlar va yig'implarni davlat budjetiga tushumini ko'paytirish maqsadida ularni undirish mexanizmlari va samarali ishlashiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash lozimdir.

Jahon taraqqiyotida davlatlarning iqtisodiy tuzumi, iqtisodiy, siyosiy rivojlanish darajasi, ishlab chiqarish va mulkchilik munosabatlari holatining turlicha bo'lishi, o'z navbatida har bir davlatda soliqlarning budjet daromadlarini shakllantirishdagi o'rnini soliqlarning tarkibiy tuzilishi, bevosita va bilvosita soliqqa tortish nisbatini, soliqlar bajaradigan funksiyalardan foydalanish sharoitlari, soliqqa tortish tamoyillari, soliq imtiyozlari tarkibi va ulardan foydalanish samarasi, soliq yuki darajasining ham turlicha bo'lishini taqozo etadi. Binobarin, bunday sharoitda soliq tizimini optimallashtirish jarayoni ham turlicha bo'lishi tabiiy holdir.

Soliq tizimini optimallashtirish yo'llarini ishlab chiqishda mamlakatda soliq munosabatlarining shakllanish holati ham muhim rol o'ynaydi. Bozor iqtisodiyotiga tobora moslashib borayotgan respublikamiz uchun soliq munosabatlari o'ziga xos tartibda, aytish mumkinki biroz murakkab shakllanib bormoqda.

Bugungi kunda respublikamizda soliq tizimi vositasida iqtisodiyotni tartibga solishning asosiy yo'llaridan biri bu soliqlarning fiskalligini oshirish emas, balki soliq to'lovchilar sonini ko'paytirishga va ularning erkin daromad olishlariga imkoniyat yaratishdir. Shunga qaramasdan amaldagi soliq tizimini mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidan kelib chiqib takomillashtirish va soliqlarning davlat budjeti daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyatini oshirish ayni paytda dolzarbdir.

**Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti va predmeti.** Mamlakatimizda soliqlarning budjet daromadlarini tashkil qilishdagi o'рни va ahamiyati mazkur ishning ob'ekti hisoblanadi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida soliqlarning budjet daromadlarini tashkil qilishdagi o'рни va shakllantirish jarayonidagi moliyaviy munosabatlar ishning predmeti hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari.** Bitiruv malakaviy ishining maqsadi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida soliqlarning budjet daromadlarini tashkil qilishdagi o'рни va ahamiyati yoritish, bu boradagi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yuzasidan taklif-tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ishning maqsadidan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- davlat budjeti tushunchasi, uning mazmun-mohiyati va ahamiyatini yoritish;
- soliqlarning budjet daromadlarini shakllantirishining ilmiy-nazariy asoslarini yoritish;
- soliqlarning davlat budjeti daromadlarini shakllantirishdagi o'рни va ahamiyatini tahlil qilish;
- davlat budjeti solikli daromadlarining guruhlanishi hamda uning amal qilish mexanizmining tahlil qilish;
- soliqlarning budjet daromadlarini tashkil qilish jarayonidagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etishni bayon etish;
- iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida soliqlarning budjet daromadlarini tashkil qilishdagi ahamiyatini oshirish masalalarini bayon etish.

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusining nazariy va amaliy ahamiyati.** Malakaviy ishdan olingan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalardan soliqlarning budjet daromadlarini tashkil qilishdagi o'рни va ahamiyatini oshirishga doir ilmiy ishlarini olib borishda, soliq siyosatini yanada takomillashtirishda foydalanish mumkin. Malakaviy ish materiallaridan o'rta maxsus kasb hunar kollejlari da soliq tizimiga doir fanlarni o'qitishda foydalanish mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishining tarkibi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, uch bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat.

Ishning birinchi bobi soliqlarning budjet daromadlarini tashkil qilishining ilmiy-nazariy asoslariga qaratilgan va unda davlat budjeti tushunchasi, uning mohiyati va ahamiyati, davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning nazariy jihatlarini yoritilgan.

Ishning ikkinchi bobida davlat budjetining solikli daromadlarini shakllantirish tartibining tahlil etilgan bo‘lib, unda soliqlarning davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda o‘rni va ahamiyati, davlat budjeti solikli daromadlarining guruhlanishi hamda uning amal qilish mexanizmi respublikamiz va Mirzo-Ulug‘bek tumani ma’lumotlari asosida tahlil qilingan.

Ishning uchinchi bobi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida soliqlarning budjet daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyatini oshirish masalalariga qaratilib, unda davlat budjeti solikli daromadlarini shakllantirishdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari hamda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida soliqlarning budjet daromadlarini tashkil qilishdagi ahamiyatini oshirish masalalari yoritilgan.

Ishning xulosa qismida mavzuni o‘rganish natijasida chiqarilgan xulosalar umumlashtirilgan va taklif-tavsiyalar bayon etilgan.

## **I.BOB. SOLIQLARNING BUDJET DAROMADLARINI TASHKIL QILISHINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI**

### **1.1. Davlat budjeti tushunchasi, uning mazmun-mohiyati va ahamiyati**

O‘zbekiston Respublikasida o‘tkazilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar jarayonida soliq tizimini modernizatsiya qilish asosiy ustivor vazifalardan biri hisoblanadi. Davlat budjeti daromadlariga jalb qilinadigan mablag‘larning uzluksiz tushib turishini ta’minlashda hamda soliq sub’ektlariga nisbatan qulay soliq muhitini yaratishda soliq mexanizmi alohida ahamiyat kasb etadi.

Soliq mexanizmi davlat tomonidan soliq munosabatlarini tashkil etish uchun qo‘llaniladigan soliqqa tortish jarayonining elementlari va ularni boshqarishning yig‘indisini ifodalaydi. Fikrimizga aniqlik kiritadigan bo‘lsak, soliq mexanizmi soliq munosabatlarini tashkil qilish usullari yig‘indisi bo‘lib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishda qulay sharoitlar yaratish maqsadida davlat tomonidan ishlab chiqiladi.

Hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan soliq islohotlarining amaliy natijasi asosan harakatdagi soliqlarni soddalashtirish va unifikatsiya qilish, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning davlat budjeti bilan hisoblari mexanizmini takomillashtirish, soliq hisobotlarini taqdim etish holatlarini kamaytirishga qaratilgan. Respublikamiz hukumati tomonidan olib borilayotgan soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlari yuridik va jismoniy shaxslar zimmasidagi soliq yukini kamaytirishga, soliqqa tortish tizimini soddalashtirishga, soliq stavkalarini pasaytirishga, soliqqa tortiladigan ob’ektlarni maqbul darajada kamaytirishga qaratilganligi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Mamlakatimizda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti asoslarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar har bir sohada tub islohotlar amalga oshirishni taqozo etmoqda. O‘z-o‘zidan ayonki, rivojlangan mamlakatlarning turli sohalaridagi, jumladan, iqtisodiy ravnaqining asosi ularda bozor munosabatlarining amal qilishidir. Shundan kelib chiqqan holda



respublikamizda ham mustaqillikka erishilgan paytdan e'tiboran bozor munosabatlarini shakllantirishga, rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratildi va bu boradagi islohotlar davom etmoqda. Ma'lumki, bozor iqtisodiyotiga o'tish davlat oldidagi vazifalarni ham o'zgarishiga olib keladi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish natijasida davlatning vazifalari o'zgarishi o'z navbatida unga zarur bo'lgan moliyaviy resurslar shakli, miqdori va o'zlashtirish tartibida bir qator o'zgarishlar qilishni talab etadi. Shuning bilan birgalikda bozor iqtisodiyotining zamonaviy holatiga ko'ra unda davlatning o'rni ham katta bo'lib, davlat turli ko'rinishlardagi inqirozlarni oldini olish, bozor munosabatlarining erkin qaror topishi, tadbirkorlikning rivojlanishini rag'batlantirish kabi bir qator vazifalarni o'z zimmasiga oladi. Ma'lumki, davlat tomonidan amalga oshiriladigan har qanday vazifalar muayyan xarajatlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Bu esa davlat budjetini shakllantirish hamda mavjud resurslardan samarali va oqilona foydalanish zaruratining har tomonlama maqbul tizimini yaratish lozimligini taqozo etadi.

Davlat budjeti davlatning yirik markazlashgan pul fondi bo'lib, u davlatning funksiyalarini bajarishga asoslangan iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Iqtisodiy adabiyotlarda ko'pchilik etakchi iqtisodchi-olimlar tomonidan davlat budjetini davlatning yirik markazlashgan pul fondi va asosiy moliya kategoriyasi ekanligi qayd etilgan.

Budjet "G'azna" degan ma'noni bildirib, bu davlat va mahalliy o'z-o'zini boshqarish vazifalari va funksiyalarini moliyaviy ta'minlash uchun mo'ljallangan pul mablag'lari jamg'armalarini to'plash va sarflash shaklidir<sup>3</sup>.

Budjet so'zi g'azna ma'nosini bildirar ekan, uning mohiyati ham davlatning qo'lida markazlashtirilgan pul jamg'armalarining tashkil etilishi va davlatning siyosatini amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar yuzasidan pul munosabatlarini bildiradi. Davlat budjeti moliya tizimi hamda davlat moliya bo'g'inining asosiy qismidir.

---

<sup>3</sup> Vaxobov A., Srojiddinova Z. O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti. T-2007 y.

Davlat budjeti – davlat pul mablag‘larining (shu jumladan davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘larining) markazlashtirilgan jamg‘armasi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlari uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Davlat budjeti umumdavlat pul mablag‘lari fondining iqtisodiy ko‘rinishida tashkil topishining asosi bo‘lib, u jamiyatning umumiy pul mablag‘lari fondlari tizimida asosiy o‘rinni egallaydi. Bundan tashqari u ishlab chiqarishning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib, uning mazmuni va tarkibini aniqlaydi hamda ishlab chiqarish rivojlanishidagi ijtimoiy ehtiyojlarni ta‘minlashga zamin yaratadi. Demak, davlat budjetining mohiyati - bozor iqtisodiyotidagi iqtisodiy qonunlar, davlatning tabiati bilan belgilanadi. Budget iqtisodiy kaegoriya sifatida ishlab chiqarish munosabatlarining ijtimoiy ishlab chiqarish jarayoniga faol ta‘sir kqrsatadigan tomonlarini o‘zida aks ettiradi.

Davlat o‘z vazifalarini bajarish jarayonida bir qator xarajatlar qilishi zarur. Bu xarajatlar eng avvalo mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun turli sohalarga investitsiya qilish uchun mqljallangan, aholining yashash darajasini kqtarishga va ijtimoiy vazifalarni bajarishga qaratilgan, davlatning boshqarish, mudofaani ta‘minlash kabi aniq maqsadlarga yo‘naltirilgan rejalashtirilgan xarajatlardan iborat bo‘ladi. Bu xarajatlar budget orqali moliyalashtiriladi.

Budget tizimining tarkibi davlatning tuzilishiga bog‘liq. Dunyoda 3 xil davlat tuzilishi mavjud bo‘lib, davlatning tuzilishi hududlarning bqlinishi va hokimiyatlarning vazifalariga bog‘liq.

Federativ davlatlarda davlat budjeti uch bo‘g‘indan iborat (AQSH, Germaniya, Rossiya Federatsiyasi):

Davlat budjeti yoki federal budjet;

Federatsiya a‘zolari budjeti;

Mahalliy budjetlar.

Konfederativ davlatlarda ham davlat budjeti uch bo‘g‘indan iborat (Kanada, SHvetsiya):

1. Konfederatsiya hokimiyati budjeti;
2. Konfederatsiya a‘zolari budjeti;
3. Mahalliy budjetlar.

Unitar davlat budjeti ikki bo‘g‘indan iborat (Fransiya, Italiya, O‘zbekiston):

1. Respublika budjeti;
2. Mahalliy budjetlar.

O‘zbekistonning davlat hokimiyati idoralari: viloyatlar, shaharlar va tumanlar bilan o‘zaro munosabatlarni yangicha iqtisodiy asoslarda qayta tashkil etildi. Respublikamiz o‘z daromadlarini mustaqil tasarruf etadigan va o‘z xarajatlarini to‘la-to‘kis o‘zi moliyalashtiradigan bo‘ldi. Bularning hammasi davlatning zaruriy xususiyati sanaluvchi budjet va budjet jarayonida o‘z aksini topmasligi mumkin emasligini hisobga olgan holda budjetga oid huquqiy munosabatlarning takomillashtirilishida ilk qadamlar tashlandi.

Har qanday davlatning budjet tizimi, shu mamlakatning davlat tuzumiga bog‘liq holda tashkil etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 122-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti o‘z ichiga respublika budjetini, Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetini va mahalliy budjetlarni oladi.

O‘zbekiston Respublikasining Budjet Kodeksiga muvofiq, mamlakat budjet tizimi ikki pog‘onali budjetdan iborat, ya’ni:

1. Respublika budjeti;
2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlar<sup>4</sup>.

Budjet iqtisodiy kateoriya sifatida turli budjet fondlarini shakllantirish, taqsimlash, foydalanish paytida yuzaga keluvchi va ro‘yobga chiquvchi iqtisodiy munosabatlardir va uning asosida doimo moddiy ishlab chiqarish hamda nomodiy xizmat kqrsatishlar yotadi. Huquqiy kategoriya sifatida budjet tegishli hudud doirasida markazlashtirilgan pul fondlarini shakllantirish, taqsimlash,

---

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasining Budjet Kodeksi. –T “Adolat” .2014 y. (34-modda)

foydalanishga qaratilgan va tegishli davlat yoki mahalliy hokimiyat idorasi tomonidan tasdiqlangan asosiy moliyaviy reja, yuridik me'yorlardan iborat.

Budjet alohida bir mamlakatning asosiy moliyaviy rejasi sifatida quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi:

- budjet universal moliyaviy reja sifatida tegishli hududning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotining barcha sohalari va yqnalishlarini tqila qamrab oladi;
- budjet boshqa turdagi moliyaviy rejalarga nisbatan muvofiqlashtiruvchi vazifani bajaradi.

Budjetning bajaradigan funksiyalari va belgilariga asoslangan holda, unga turli iqtisodchi olimlar tomonidan turlicha ta'rif berilgan. Jumladan, prof. V.M. Radionova davlat budjetiga quyidagicha ta'rif bergan: «Davlat budjeti bu - milliy daromad (qisman milliy boylik)ni qayta taqsimlash natijasida, xalq xo'jaligi sohaslarini, madaniy-ijtimoiy tadbirlarni, davlat boshqaruvini, mudofaa ehtiyojlarini moliyalashtirishga mo'ljallangan budjet fondini tashkil qilish va foydalanish jarayonida davlat bilan jismoniy, huquqiy shaxslar qrtasida yuzaga chiqadigan pulli munosabatlardir».

O'zbekiston Respublikasining Budjet Kodeksiga asosan davlat budjetiga quyidagicha tarif berilgan: “Davlat budjeti - davlat pul mablag'larining (shu jumladan davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larining) markazlashtirilgan jamg'armasi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi”<sup>5</sup>.

Davlat budjeti davlat moliyasining etakchi bo'g'ini sifatida davlat va hududiy (mintaqa va mahalliy) o'z-o'zini boshqaruvchi organlarning maqsad va vazifalarini moliyaviy jihatdan ta'minlashga mo'ljallangan markazlashgan pul fondlarining tashkil topishi va ishlatilishini ifodalaydi. SHu o'rinda mahalliy budjetlarning jamiyat hayotidagi muhim roli xususida to'xtalib qish lozim. Mahalliy budjetlar - hududiy moliyaning asosiy tashkil etuvchisi hisoblanadi. Mahalliy budjetlarning

---

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasining Budjet Kodeksi. –T “Adolat”.2014 y. (34-modda)

daromadlari, asosan, mahalliy soliqlar va yigʻimlar, soliqsiz daromadlar, yuqori turuvchi budjet tashkilotidan olinadigan ajratmalardan tashkil topadi.

Oʻzbekiston Respublikasining Budjet Kodeksiga mahalliy budjetlarga quyidagicha taʼrif berilgan: «Mahalliy budjet - davlat budjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablagʻlari jamgʻarmasini tashkil etuvchi bir qismi boʻlib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablagʻlar sarfi yoʻnalishlari va miqdori nazarda tutiladi»<sup>6</sup>.

Qonunda qayd etilishiga koʻra, mahalliy budjetlar boʻgʻinlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

- Qoraqalpogʻiston Respublikasi budjeti;
- viloyatlar budjeti;
- shaharlar budjeti;
- tumanlar budjeti;
- shaharlar tarkibidagi tumanlar budjeti (Toshkent shahrida);
- tumanlar tarkibidagi shaharlar budjeti.

Ijtimoiy yoʻnaltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishda mahalliy davlat boshqaruv organlari faoliyati alohida ahamiyatga ega. Mahalliy davlat boshqaruv organlari qzlariga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun muayyan moliyaviy manbalarga ega boʻlishi lozim. Hududiy davlat boshqaruv organlari moliya tizimining asosiy tarkibiy qismi - bu mahalliy budjet hisoblanadi.

Mahalliy budjetlar davlat moliya tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi va ular respublikamiz davlat budjetida muhim ahamiyatga ega boʻlib, mahalliy hokimiyatlarning faoliyat koʻrsatishlarida moliyaviy manba hisoblanadi. Mahalliy budjetlar tizimi mahalliy talab-ehtiyojlarni tqlaroq qondirishni hamda davlatning markazlashgan tartibda amalga oshiradigan tadbirlarining bajarilishi bilan chambarchas bogʻlangan holda ijro etishga imkon yaratadi. Mahalliy davlat

---

<sup>6</sup> Oʻzbekiston Respublikasining Budjet Kodeksi. –T “Adolat”.2014 y.(35-modda)

hokimiyat organlariga mahalliy budget daromadlarining ko'payishtirish va resurslarning tejamkorlik bilan sarflanishi vazifasi yuklatiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi to'g'ridan-to'g'ri mahalliy budjetdan xarajatlarni amalga oshirish, mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish kabilarga bevosita bog'liqdir.

Globalizatsiya davrida, jahon iqtisodiyotining sekinlashuvi ochiq iqtisodiyotga ega bo'lgan har qanday mamlakatning iqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'sir etadi. 2016 yil aprelda Xalqaro valyuta fondi jahon iqtisodiyoti istiqbollari to'g'risidagi prognozlarini yangiladi va 2016 yilda ham sekin iqtisodiy o'sish tendentsiyasi davom etishini ta'kidladi.

1-jadval

**Ayrim MDH mamlakatlari yalpi ichki mahsulotining  
real o'sish sur'atlari<sup>7</sup>**

Mamlakat	2015y	2016y	2017 y	2018 y	2019 y	2020y	2021 y
Rossiya	-3.746	-1.849	0.812	1.000	1.500	1.500	1.500
Qozog'iston	1.156	0.135	1.050	1.806	2.163	3.364	4.931
Qirg'iziston	3.469	3.515	2.740	5.428	4.886	5.706	4.526
Tojikiston	3.000	3.000	3.500	4.500	4.500	4.500	4.500
Turkmaniston	6.500	4.250	4.500	5.262	5.684	5.985	6.217

Jadvaldagi ma'lumotlardan kelib chiqib, O'zbekistonga qo'shni bo'lgan va O'zbekiston bilan savdo munosabatlarini o'rnatgan mamlakatlarning iqtisodiy o'sishi pasayganini kuzatish mumkin. Masalan, mamlakatimizning asosiy savdo hamkorlaridan biri sanalgan Rossiyaning yillik YaIM o'sishi 1% dan 0,812% ga pasaygan. Rossiya va O'zbekistonning boshqa savdo hamkorlari daromadlarining pasayishi mamlakatimiz eksportiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, va pul o'tkazmalari kanallari orqali iste'molni pasaytiradi.

Xulosa o'rnida, iqtisodiy nazariya nuqtai nazaridan ushbu holat O'zbekistonning iqtisodiy o'sishiga ta'sir ko'rsatadi va mazkur ta'sir darajasini o'z

<sup>7</sup> IMF, World Economic outlook, April 2016.

vaqtida aniqlash siyosatchilarga iqtisodiy siyosatni moslashtirish (korrektirovka qilish) hamda iqtisodiy o'sish zaxiralaridan foydalanish imkoniyatini beradi. Shundan kelib chiqqan holda, biz talab tomondan makro-ekonometrik model shakllantirib, Rossiya iqtisodiyotining sekinlashuvi ta'sir darajasini baholash hamda uning O'zbekistonning asosiy makroiqtisodiy o'zgaruvchilariga ta'sirini o'rganishga harakat qilib ko'ramiz.

2-jadval

### Iste'molning o'zgarish tendentsiyasi<sup>8</sup>

	-1% o'sish	-1.2% o'sish	-1.4% o'sish	-1.6% o'sish	-1.8% o'sish	-2.0% o'sish
<b>Yillik o'sish</b>	<b>113,3</b>	<b>113,3</b>	<b>113,2</b>	<b>113,1</b>	<b>113,0</b>	<b>112,9</b>
<b>Farq</b>		<b>-0,08</b>	<b>-0,16</b>	<b>-0,25</b>	<b>-0,33</b>	<b>-0,41</b>

Makroiqtisodiy o'zgaruvchilarning o'zgarishi davlat byudjeti ijrosiga ta'sir etadi. Shu boisdan Rossiya iqtisodiyoti sekinlashuvining davlat byudjetining asosiy daromadlari, bevosita va bilvosita soliqlar hamda boshqa daromadlariga ta'sirini baholashni taqozo etadi. Bevosita va bilvosita soliqlarni belgilab beruvchi bir qancha ko'rsatkichlar mavjud bo'lib, ushbu ilmiy maqolada O'zbekiston YaIMi real o'sish sur'atlari ta'sirini qamrab oladi.

O'zbekistonning asosiy savdo hamkorlaridan biri Rossiya hisoblanib, u yerdagi iqtisodiy faoliyatning o'zgarishi savdo kanallari orqali O'zbekiston iqtisodiyotiga ham o'tib keladi. Shuningdek, mamlakatimizni iqtisodiy rivojlantirish, uzoq muddatli strategik maqsadlarni amalga oshirishda O'zbekistonning jahon bozoridagi raqobatdoshligini oshirish va mavqeini mustahkamlashga yo'naltirilgan tarkibiy o'zgarishlar, zamonaviy yuksak texnologiyalarga asoslangan eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlaydigan ishlab chiqarishlarni jadal rivojlantirish asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri ekanligiga alohida e'tibor qaratildi.

<sup>8</sup> IMF, World Economic outlook, April 2016.

**Eksportning o'zgarish tendentsiyasi<sup>9</sup>**

	-1% o'sish	-1.2% o'sish	-1.4% o'sish	-1.6% o'sish	-1.8% o'sish	-2.0% o'sish
<b>Yillik o'sish</b>	<b>106,8</b>	<b>106,4</b>	<b>106,1</b>	<b>105,7</b>	<b>105,3</b>	<b>105,0</b>
<b>Farq</b>		<b>-0,37</b>	<b>-0,75</b>	<b>-1,12</b>	<b>-1,49</b>	<b>-1,86</b>

Regression tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki Rossiyaning real o'sishi 1% ga ohsa bizning real eksportimiz 1.4% ga oshadi. Elastiklik koeffitsientining 1dan kattaligini ko'rishimiz mumkin, bu o'z navbatida Rossiya YaIMning pasayishi O'zbekiston eksportini sezilarli darajada pasaytirishidan dalolat beradi.

Respublikamizning mustaqillikka erishishi va ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sari yo'l tutishi davrida mahalliy budjetlarning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi roli yanada oshdi. Mahalliy budjetlar daromadlarining shakllanishidagi ushbu yo'nalishni Prezident I.Karimov shunday ta'kidlagan edi: «Davlat budjeti daromadlarining katta qismini joylarga berish, mahalliy budjetlarni mustahkamlash zarur. Bu esa mintaqalar mustaqilligini oshirish, ularning tashabbuskorligini, budjetning ijrosidan manfaatdorligidan va bu boradagi mas'uliyatini oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari, bu narsa mahalliy budjetlarga tushumlarning yangi manbalarini qidirib topishga rag'batlantiradi, joylarda budjet intizomini mustahkamlaydi»<sup>10</sup>.

Yalpi ichki mahsulotning pasayishi siyosatda qarorlar qabul qilish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Agar siyosiy qarorlar YaIMdagi yuqotishni qoplashga qaratilmasa, bu holat davlat byudjeti daromadlariga ham ta'sir ko'rsatib, byudjet taqchilligini yuzaga keltirishi mumkin.

<sup>9</sup> IMF, World Economic outlook, April 2016.

<sup>10</sup> Karimov I. «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida». T. 1995 y. 124-bet.



**Davlat byudjeti daromadlari tarkibining  
o'zgarish tendentsiyasi**

	<b>-1% o'sish</b>	<b>-1.2% o'sish</b>	<b>-1.4% o'sish</b>	<b>-1.6% o'sish</b>	<b>-1.8% o'sish</b>	<b>-2.0% o'sish</b>
<b>Bevosita soliqlar</b>						
<b>Yillik o'sish</b>	24,03	23,83	23,62	23,22	23,02	22,82
<b>Farq</b>		-0,20	-0,40	-0,81	-1,01	-1,21
<b>Bilvosita soliqlar</b>						
<b>Yillik o'sish</b>	26,21	25,51	24,81	23,42	22,72	22,02
<b>Farq</b>		-0,70	-1,40	-2,79	-3,49	-4,19
<b>Resurs to'lovlari</b>						
<b>Yillik o'sish</b>	18,05	17,30	16,54	15,03	14,27	13,52
<b>Farq</b>		-0,76	-1,51	-3,02	-3,78	-4,53
<b>Jami daromadlar</b>						
<b>Yillik o'sish</b>	22,64	21,79	20,94	19,24	18,39	17,53
<b>Farq</b>		-0,85	-1,70	-3,40	-4,26	-5,11

Yalpi ichki mahsulotning pasayishi siyosatda qarorlar qabul qilish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Agar siyosiy qarorlar YaIMdagi yuqotishni qoplashga qaratilmasa, bu holat davlat byudjeti daromadlariga ham ta'sir ko'rsatib, byudjet taqchilligini yuzaga keltirishi mumkin<sup>11</sup>.

Davlat budjetining harakat qilish mexanizmi ikki ko'rsatkichda bo'ladi:

1. Davlat budjetining daromadlari.
2. Davlat budjetining harajatlari.

Daromadlar – bu davlatning sub'ekti sifatida faoliyat ko'rsatishi uchun moliyaviy baza hisoblanadi.

<sup>11</sup> Xakimov O. Globallashuv sharoitida O'zbekistonning makroiqtisodiy holati. «Milliy iqtisodiyot raqobatdoshligini oshirishda davlat moliyaviy resurslarini oqilona boshqarishning dolzarb masalalari» respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi tezislari to'plami. 2016 yil. 20-23 b.

Xarajatlar – umumjamiyat ahamiyatiga molik bo‘lgan tadbirlar va iste’mollar moliyaviy resurslar bilan ta’minlaydi.

Budjet daromadi birinchidan, ijtimoiy ishlab chiqarish qatnashchilari tomonidan jami ijtimoiy mahsulotni qiymatini taqsimlash natijasida shakllangan bo‘lsa, ikkinchidan, davlat ixtiyorida vujudga kelgan qiymatni maqsadli fondlar hududlararo va tarmoqlararo fondlarni tashkil etish uchun qayta taqsimlash xususiyatga egadir.

## **1.2. Soliqlarning budjet daromadlarini shakllantirishining ilmiy-nazariy asoslari**

Soliqlar orqali davlat iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi sub’ektlarning moliyaviy xo‘jalik faoliyatiga bevosita yoki bilvosita ta’sir etib, ular faoliyatini kengaytirishi yoki cheklab qo‘yishi mumkin. Xo‘jalik faoliyatini tashkil etish, boshqaruv shakllari va usullarini takomillashtirish tizimida chuqur o‘zgarishlar ro‘y berayotgan bir davrda soliqlar ikkinchi darajali iqtisodiy institutdan davlatning jamiyat iqtisodiy turmushiga, yuridik va jismoniy shaxslarning xo‘jalik ishlaridagi intizomiga ta’sir o‘tkazishning asosiy vositasiga aylanib bo‘ldi.

Ma’lumki, soliq tizimi aniq maqsadga qaratilgan moliyaviy siyosat bo‘lishi bilan birgalikda yalpi ichki mahsulotning bir qismini qayta taqsimlaydi va shu tarzda iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini o‘zgartirishda, aholini ijtimoiy himoyalash kafolatini ta’minlashda bevosita ishtirok etadi.

Soliq tizimini isloh qilishdan ko‘zlangan asosiy maqsad korxonalar zimmasidagi soliq yukini keskin kamaytirishdir. Korxonalar zimmasidagi soliq yukining engillashtirilishi, soliq stavkasining qamaytirilishi natijada ishlab chiqarishni rivojlantirish va iqtisodiyotni barqarorlashtirishga erishishga olib keladi. Shu bilan bir qatorda, korxonalar va tashkilotlarning soliqlar bo‘yicha byudjet bilan hisoblashishlari, ularning hisobi, tahlili va nazoratini takomillashtirishga olib kelmoqda.

Iqtisodiy yuksalish va moliyaviy barqarorlik talablariga javob beradigan soliq tizimini yaratishda soliq yukini mumkin qadar past va optimal darajada bo'lishiga erishish muhimdir. Bu bir qarashda unchalik murakkab emasdek tuyulsa-da, aslida bunday emas. Bu o'z navbatida bu sohada ilmiy tadqiqotlarni chuqur olib borishni, har tomonlama puxta uylangan va asoslangan amaliy xulosalar asosida ish ko'rishni taqozo etadi. Chunki, soliqlar davlatga ham, soliq to'lovchiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmasligi lozim.

Bugungi kunda mamlakatimizda soliq tizimining ustuvor yo'nalishlari sifatida soliqlar bo'yicha asosiy yuk tabiiy, mineral-xom ashyo, er-suv va boshqa zaxiralardan tejamkorlik bilan va oqilona foydalanishni rag'batlantiruvchi resurs soliqlariga tushishini ta'minlash, soliqqa tortish masalasida xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasidan foydalanish hamda soliq tizimining nafaqat soliqlarni undirish, balki birinchi galda, rag'batlantirish xususiyatiga ega bo'lishligini ta'minlash, doimiy ravishda amaldagi soliq qonunchiligini tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilib, shu asosda uni yanada soddalashtirish, soliqlarni unifikatsiya qilish, soliq yukini engillashtirish, soliq boshqaruvini takomillashtirish va erkinlashtirish borasida masalalarga qaratilishi lozim.

Bu o'z navbatida soliqlar orqali iqtisodiyotni boshqarish mexanizmining to'g'ri, oqilona ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq etish natijasida davlat iqtisodiyotini boshqarishning moliyaviy vositasi sifatida shakllangan soliq tizimi iqtisodiy jarayonlarga ijobiy ta'sir etadi.

Bozor munosabatlariga o'tish davridagi murakkab iqtisodiy sharoitda davlatning iqtisodiyotni tartiblash mexanizmida soliqlarning o'rni nihoyatda beqiyos. Iqtisodiyotning samarali rivojlanishi hozirgi iqtisodiy taraqqiyotda ko'p darajada davlat tomonidan iqtisodiy jarayonlarni boshqarishni to'g'ri tashkil etishga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishning dastlabki yillaridanoq davlat iqtisodiyotni tartibga solishda soliqlardan ushbu konsepsiyaga asoslangan holda foydalandi. Iqtisodiy islohotlar boshlangan davrdan buyon o'tgan vaqt mobaynida


respublikamizda iqtisodiy islohotlar yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu esa o‘z navbatida iqtisodiy shu jumladan soliq sohasida ham bir qancha o‘zgarishlarni amalga oshirishni talab etadi. Bugungi kunda soliq tizimini optimallashtirish iqtisodiy islohotlarning eng dolzarb masalasi hisoblanadi.

Jahon taraqqiyotida davlatlarning iqtisodiy tuzumi, iqtisodiy, siyosiy rivojlanish darajasi, ishlab chiqarish va mulkchilik munosabatlari holatining turlicha bo‘lishi, o‘z navbatida har bir davlatda soliqlarning budjet daromadlarini shakllantirishdagi o‘rnini soliqlarning tarkibiy tuzilishi, bevosita va bilvosita soliqqa tortish nisbatini, soliqlar bajaradigan funksiyalardan foydalanish sharoitlari, soliqqa tortish tamoyillari, soliq imtiyozlari tarkibi va ulardan foydalanish samarasi, soliq yuki darajasining ham turlicha bo‘lishini taqozo etadi. Binobarin, bunday sharoitda soliq tizimini optimallashtirish jarayoni ham turlicha bo‘lishi tabiiy holdir.

Davlar budjeti umumdavlat pul mablag‘lari fondining iqtisodiy ko‘rinishida tashkil topishining asosi bo‘lib, u jamiyatning umumiy pul mablag‘lari fondlari tizimida asosiy o‘rinni egallaydi. Bundan tashqari u ishlab chiqarishning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib, uning mazmuni va tarkibini aniqlaydi hamda ishlab chiqarish rivojlanishidagi ijtimoiy ehtiyojlarni ta‘minlashga zamin yaratadi.

1-rasm

### Jahondagi ayrim davlatlarda o‘rtacha soliq yuki dinamikasi (YaIMga nisbatan, foizda)<sup>12</sup>



<sup>12</sup><http://fikir.uz>- Ziyonet axborot ta'lim tarmog'i doirasida tuzilgan sayt.

Soliq va budget siyosatida iqtisodiyotni modernizatsiyalashni rag'batlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash, soliq yukini pasaytirish, investitsiya muhitini yaxshilash, makroiqtisodiy o'sishni va mos ravishda, axoli turmush farovonligini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ko'zda tutilmoqda.

Ma'lumki, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hanuz davom etayotgan bir sharoitda aksariyat davlatlarda soliq yuki darajasi o'rtacha darajadan yuqoriligicha saqlanib qolmoqda.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti asoslarini shakllantirish va rivojlantirish har bir sohada tub islohotlar amalga oshirishni taqozo etdi. Respublikamizda mustaqillikka erishilgan paytdan e'tiboran bozor munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratildi va bu boradagi islohotlar davom etmoqda. Ma'lumki, bozor iqtisodiyotiga o'tish davlat oldidagi vazifalarni ham o'zgarishiga olib keldi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish natijasida davlatning vazifalari o'zgarishi o'z navbatida unga zarur bo'lgan moliyaviy resurslar shakli, miqdori va o'zlashtirish tartibida bir qator o'zgarishlar qilishni talab etdi. Buning natijasida budget daromadlarini shakllantirish tizimida ham keng ko'lamdagi islohotlar amalga oshirildi. Shu o'rinda davlat budjeti daromadlarni shakllantirishning zarurligi haqida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq.

Davlat o'z vazifalarini bajarish jarayonida bir qator xarajatlar qilishi zarur. Bu xarajatlar eng avvalo mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun turli sohalarga investitsiya qilish uchun mo'ljallangan, aholining yashash darajasini ko'tarishga va ijtimoiy vazifalarni bajarishga qaratilgan, davlatning boshqarish, mudofaani ta'minlash kabi aniq maqsadlarga yo'naltirilgan rejalashtirilgan xarajatlardan iborat bo'ladi. Bu xarajatlar budget orqali moliyalashtiriladi.

Davlat budjeti har yili ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti, uning daromad va xarajatlari boshqa iqtisodiy kategoriyalar: soliq, narx, kredit, foyda, tannarx, qiymat va hakazolar bilan

birgalikda turli munosabatlarga kirishar ekan, ular ustidan moliyaviy nazoratni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasining Budget Kodeksiga muvofiq davlat maqsadli fondlari – davlat budjeti tarkibida birlashtiriladigan fondlar, ularning har biri uchun qonun hujjatlari bilan belgilangan mablag‘lar manbalari, har bir manbadan mablag‘ tushishi me‘yorlari va shartlari, shuningdek shu mablag‘lardan foydalanish mumkin bo‘lgan yo‘nalishlaridir.

Ikkinchi jahon urushidan keyin G‘arbiy Evropa mamlakatlarida temir yo‘l, havo transporti, energiya sohalari va boshqa bir qator sohalarning davlat ixtiyoriga o‘tkazilishi natijasida davlat korxonalarining davlat moliyasi tarkibidagi salmog‘i sezilarli darajada o‘tdi. Bu sohalar qoloq va raqobatga dosh beraolmaydigan sohalar sanalardi. Ularni qayta jihozlash ulkan mablag‘ talab qilardi va bu xarajatlar davlat budjetidan moliyalashtiriladi. Bu sohalarni yangilanishi va ilg‘or texnika bilan ta‘minlanishiga qaramasdan moliyaviy jihatdan – past samarali yoki zarar bilan ishlovchi korxonalar hisoblanadi. Buning asosiy sababi ular ishlab chiqarayotgan maqsadlarga nisbatan pasaytirilgan narxlar siyosatining qo‘llanishidir.

O‘zbekiston Respublikasida yuritilayotgan iqtisodiy siyosatga ko‘ra davlat umumxalq manfaatlarini ko‘zlagan holda energiya, aholi transporti, harbiy va shu kabi ustuvor sohalarni o‘z qo‘lida saqlab qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Budget Kodeksiga muvofiq davlat budjeti xarajatlari tasdiqlangan budjetdan mablag‘ ajratish doirasida quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Budget mablag‘lari oluvchilarning joriy xarajatlari shaklida;
2. Joriy budjet transfertlari sifatida;
3. Kapital xarajatlar shaklida;
4. Kapital xarajatlarni qoplash uchun yuridik shaxslarga beriladigan budjet dotatsiyalari va budjet ssudalari shaklida;

5. Rezident – yuridik shaxslarga va chet el davlatlariga beriladigan budjet ssudalari shaklida;

6. Davlat maqsadli jamg'armalariga beriladigan budjet dotatsiyalari va budjet ssudalari shaklida;

7. Davlat qarzini qaytarish va unga xizmat ko'rsatish bo'yicha to'lovlar shaklida;

8. Qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa xarajatlar shaklida.

Demak, bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning zarurati yuqorida qayd etilgan xarajatlarni moliyalashtirish ahamiyatidan kelib chiqadi. Ushbu xarajatlarni qanday tartibda va qanday manbalardan moliyalashtirish muhim ahamiyatga ega bo'lib, bozor iqtisodiyoti sharoitida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Zero, xarajatlarni moliyalashtirish manbalarining to'g'ri tashkil etilishi ham davlat budjeti daromadlarini doimiy va muntazam moliyaviy resurslar bilan ta'minlashga ham xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tadbirkorlik faoliyatini cheklab qo'ymasligiga olib kelib, mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etishda muhim ahamiyatga ega. Shu o'rinda respublika davlat budjeti xarajatlarini moliyalashtirish manbalari bo'lgan daromadlar nimalardan iborat, ularning huquqiy asoslari qanday tashkil etilganligiga to'xtalamiz.

Davlat moliyasining asosiy daromad manbai bo'lib milliy daromad hisoblanadi, ammo ayrim hollarda, ya'ni urush, tabiiy ofatlar va boshqalar paytida davlat daromadi manbai milliy daromad bilan birgalikda jamg'arilgan milliy boyliklar ham bo'lishi mumkin. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning shartli ravishda quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Soliqlar va soliqlarga tenglashtiriluvchi majburiy to'lovlar;
2. Davlat mulkini xususiylashtirishdan keladigan daromadlar;
3. Davlat zayomlari;
4. Qog'oz pullar emissiyasi va boshqalar.

Davlat daromadlari tizimida markaziy moliyaviy manba bo'lib soliqlar hisoblanadi. Soliqlar soliq qonunchiligi vositasida joriy etiladi. Soliqlar asosan fiskal, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirish soliqlarning fiskal funksiyasini kasb etsa, ayrim tarmoqlar rivojlanishini rag'batlantirish maqsadida turli xil imtiyozlar beriladi va kam daromadli aholining soliqlardan ozod etish, ularni davlat tomonidan moliyalashtirish hisobiga ijtimoiy vazifalar hal etiladi.

Davlat daromadlarini davlat zayomlari orqali ta'minlash nafaqat budjet taqchilligini moliyalashtirishga, balki turli xil ko'rinishdagi kapital xarajatlar uchun davlat sektoriga yo'naltiriladi. Davlat zayomlaridan asosan moliyaviy tanglik davrlarida foydalaniladi.

Davlat daromadlariga moliyaviy resurslarni emissiya hisobiga jalb qilish iqtisodiy nobarqarorlik paytlarida amalga oshiriladi. Soliqlardan tushadigan daromadlar va zayomlar davlat xarajatlarini qoplay olmasa, ya'ni moliyaviy bozorda davlat qimmatli qog'ozlarini joylashtirish imkoni bo'lmagan holda qog'oz pullar emissiya qilinadi. Qog'oz pullar emissiyasi xarajatlar xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ishlab chiqarish oboroti bilan bog'liq bo'lgan holda iqtisodiy samara beradi.

O'zbekiston Respublikasining Budjet Kodeksiga muvofiq davlat budjeti daromadlari:

1. Qonun hujjatlarida belgilangan soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlar;
2. Davlatning moliyaviy va boshqa aktivlarini joylashtirilishi, foydalanishga berilishi va sotilishidan olingan daromadlar;
3. Qonun hujjatlariga muvofiq meros olish, hadya etish huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari;
4. Yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek, chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;



5. Rezident-yuridik shaxslarga va chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;

6. Qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobiga shakllantiriladi.

Hozirgi sharoitda davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning samarali manbai bo'lib soliqlar va ularga tenglashtirilgan majburiy to'lovlar hisoblanadi.

Yuqorida respublikamizda davlat budjeti ikki pog'onadan iborat ekanligiga to'xtalgan edik. Ularning har biriga muayyan daromad manbalari birlashtirilgan. Jumladan, respublika budjeti daromadlari umumdavlat soliqlari, yig'implari, bojlari, majburiy to'lovlar va boshqa to'lovlar hisobiga shakllantirilsa, mahalliy budjetlar daromadlari mahalliy soliqlar, yig'implar va boshqa majburiy to'lovlar hisobiga shakllantiriladi.

Umuman davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning huquqiy asoslari respublikamizning bozor iqtisodiyotiga o'tish davridagi turli me'yoriy hujjatlari bilan tartibga solindi va tartibga solinmoqda. Bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning huquqiy asoslari sifatida 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan "Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida" gi, "O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslardan daromad solig'i undirish to'g'risida" gi, 1993 yil 6 mayda qabul qilingan "Yer solig'i to'g'risida" gi, 1993 yil 7 mayda qabul qilingan "Mahalliy soliqlar va yig'implar to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi qonunlarini va boshqa qonun va me'yoriy hujjatlarni keltirib o'tishimiz mumkin.

1997 yil 24 aprelda O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi qabul qilindi va 1998 yil 1 yanvardan kuchga kirdi. Ushbu kodeks soliqlar va yig'implarni yagona hujjatga to'pladi, umumdavlat hamda mahalliy soliqlar va yig'implarning aniq turlarini belgiladi. Shuningdek, davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning huquqiy asoslarida muhim ahamiyatga ega bo'lgan 1997 yil 29

avgustda qabul qilingan “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi va O‘zbekiston Respublikasining Budjet Kodeksini keltirib o‘tishimiz mumkin.

2008 yilning 1 yanvaridan yangi Soliq kodeksi amaliyotga joriy etildi. Bu bilan soliq va soliqqa tortish sohasida katta o‘zgarishlar va imtiyozlar yuzaga keldi. Yangi Soliq kodeksi oldingi Soliq kodeksidan farqli ravishda soliq to‘lovchilar uchun ancha qulay va tushunarli tilda bayon etildi. Bu o‘z navbatida, soliq to‘lovchi yuridik va jismoniy shaxslarga ko‘pgina qulayliklar tug‘diradi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning bajaradigan qator vazifalari uchun etarli miqdorda moliyaviy resurslar zarur, bunday moliyaviy resurslarni davlat o‘z qonunchiligi bilan shakllantiradi va davlat budjeti xarajatlarini moliyalashtirish uchun sarflanadi.

Demak, bugungi kunda respublikamiz davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning huquqiy asoslari sifatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining Budjet Kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi, Prezident farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni e‘tirof etishimiz mumkin. Umuman olganda davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning huquqiy asoslari respublikamizning bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida, unga mos ravishda shakllantirildi.

### **Birinchi bob bo‘yicha xulosalar**

Soliqlarning budjet daromadlarini shakllantirishining ilmiy-nazariy asoslarini ilmiy jihatdan o‘rganish asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

– soliq va budjet siyosatida iqtisodiyotni modernizatsiyalashni rag‘batlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlash, soliq yukini pasaytirish, investitsiya muhitini yaxshilash, makroiqtisodiy o‘rni va mos ravishda, axoli turmush farovonligini ta‘minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar ko‘zda tutilmoqda;

– bozor munosabatlariga o‘tish davridagi murakkab iqtisodiy sharoitda davlatning iqtisodiyotni tartiblash mexanizmida soliqlarning o‘rni nihoyatda beqiyos. Iqtisodiyotning samarali rivojlanishi hozirgi iqtisodiy taraqqiyotda ko‘p darajada davlat tomonidan iqtisodiy jarayonlarni boshqarishni to‘g‘ri tashkil etishga bog‘liq bo‘lib qolmoqda;

– mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti asoslarini shakllantirish va rivojlantirish har bir sohada tub islohotlar amalga oshirishni taqozo etdi. Respublikamizda mustaqillikka erishilgan paytdan e’tiboran bozor munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirishga asosiy e’tibor qaratildi va bu boradagi islohotlar davom etmoqda;

– bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning bajaradigan qator vazifalari uchun etarli miqdorda moliyaviy resurslar zarur, bunday moliyaviy resurslarni davlat o‘z qonunchiligi bilan shakllantiradi va davlat budjeti xarajatlarini moliyalashtirish uchun sarflanadi;

– bozor iqtisodiyotiga o‘tishning dastlabki yillaridanoq davlat iqtisodiyotni tartibga solishda soliqlardan ushbu konsepsiyaga asoslangan holda foydalandi. Iqtisodiy islohotlar boshlangan davrdan buyon o‘tgan vaqt mobaynida respublikamizda iqtisodiy islohotlar yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu esa o‘z navbatida iqtisodiy shu jumladan soliq sohasida ham bir qancha o‘zgarishlarni amalga oshirishni talab etadi. Bugungi kunda soliq tizimini optimallashtirish iqtisodiy islohotlarning eng dolzarb masalasi hisoblanadi.

## **II. BOB. DAVLAT BUDJETNING SOLIQLI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISH TARTIBINING TAHLILI (Mirzo-Ulug‘bek tumani DSI ma’lumotlari asosida)**

### **2.1. Soliqlarning davlat budjeti daromadlarini shakllantirishdagi o‘rni va ahamiyatini tahlili**

Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish davrida amalga oshirilayotgan muhim tadbirlar qatorida moliya soxasini isloh qilish, unda mavjud bo‘lgan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligini taminlashgazaruriyshartihisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov takidlab o‘tganlaridek: “Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini jadal yangilash biz uchun eng muhim ustuvor vazifa sifatida izchil davom ettiriladi. Mamlakatimizning barcha mintaqalarida biznesni rivojlantirish uchun yanada qulayashchan muhit yaratish, tadbirkorlik, kichik va xususiy biznesga yanada keng erkinlik berish, byurokratik to‘siq va g‘ovlarni bartaraf etish bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim”<sup>13</sup>.

Soliq tushumlari hisobidan davlat qurilish va jamiyatni ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan pul mablag‘lari jalb qilinadi. O‘zining mohiyatiga ko‘ra soliqlar davlat budjetining yuqori daromadli manbalaridan biri hisoblanadi. Buning boisi shundaki, birinchidan, soliqlar davlat budjeti tomonidan qaytarib bermaslik sharti bilan undiriladi; ikkinchidan, ular budjetning davlat xarajat qilmaydigan qismi hisoblanadi.

Soliqlar davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning asosiy va muhim manbai hisoblanadi. Shu bois, hamma vaqt soliqlarga e‘tiborsiz qaralmagan va davlat boshqaruvining hech bir davrida davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning soliqlardan boshqa samarali vositalari ilmiy jihatdan asoslanmaganligini alohida qayd etish lozim. Kishilik jamiyati taraqqiyotida

---

<sup>13</sup> Karimov.I.Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishgaxizmatqiladi. – T.: O‘zbekiston, 2011y.

solliqlarni shakllanish va rivojlanish bosqichlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, ushbu jarayonda tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun soliqlar davrlar nuqtai-nazaridan soliq tizimida turlicha o'rin egallab kelgan. Ayrim davrlarda soliq tizimining asosini tashkil etgan bo'lsa (hattoki, davlat xarajatlarini moliyalashtirishning asosiy manbasi hisoblangan), ayrim davrlarda ularga kamroq e'tibor berilgan.

Solliqlarning samarali mexanizmini shakllantirishning jahon amaliyoti va respublikamizning mustaqillik yillarida bu boradagi tajribalaridan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, soliq siyosati ayni paytda egiluvchan, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga monand bo'lishi lozim. Aks holda soliq siyosati xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va davlat manfaatlarining uyg'unlashishiga emas, balki mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omilga aylanishi mumkin.

5-jadval

**O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti  
parametrlari<sup>14</sup>**

<b>Asosiy budjet ko'rsatkichlari</b>	<b>2014 yil (mlrd. so'm)</b>	<b>2015 yil (mlrd. so'm)</b>	<b>2016 yil(prog) (mlrd. so'm)</b>	<b>Budjet daromadlari da salmog'i, %da</b>
<b>Davlat budjeti daromadlari</b>	<b>30 160,8</b>	<b>36 184,9</b>	<b>40 505,8</b>	<b>100</b>
<b>Shu jumladan: Bevosita soliqlar</b>	7 790,4	8 554,3	9 338,5	23,1
Bilvosita soliqlar	15 618,2	19 115,8	22 298,1	55
Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i	4 521,4	5 741,8	5 806,5	14,3
Qo'shimcha foyda solig'i	388,4	548,2	390,2	1,0
Boshqa daromadlar	1 842,4	2 224,8	2672,5	6,6
<i>Budjet xarajatlari</i>	<i>31 582,3</i>	<i>37 967,7</i>	<i>42 721,3</i>	

<sup>14</sup> [www.mf.uz](http://www.mf.uz)- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mamlakatimiz Davlat budjeti daromadlarining asosiy qismi soliqlardan tashkil topgan. Jumladan, tahlil etilayotgan yillarda Davlat budjeti daromadlarining o'rtacha 55 foizi bilvosita ya'ni egri soliqlar, 23,1 foiz esa bevosita soliqlar va 14,3 foizi esa mol-mulk solig'i va resurs to'lovlari hisobidan shakllantirilgan. Jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, davlat budjeti daromadlarida asosiy ulushni egri soliqlar egallamoqda. Keltirilgan ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, 2014 yil va 2016 yillar oralig'ida bilvosita soliqlar ulushining respublika budjetida daromadlar qismida ortib borganligini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni 2014 yilda respublika budjetiga 15 618,2 mlrd so'm kelib tushgan bo'lsa 2015 yilga kelib budjet daromadlaridagi ulushi 19 115,8 mlrd so'mga etganligi bu ijobiy holdir. 2016 yil prognoz rejasida esa 22 298,1 mlrd so'mga bajarish rejalashtirilgan.

To'g'ri soliqlarning ulushi esa yildan-yilga kamayish tendentsiyasiga ega bo'lsa, mol-mulk solig'i va resurs to'lovlari salmog'i esa o'sish tendentsiyasiga egadir. Buning asosiy sababi sifatida korxonalar, ya'ni yuridik shaxslar hamda jismoniy shaxslarning daromadlariga nisbatan soliq stavkalarining keyingi yillarda pasaytirilishi bilan izohlansa, mol-mulk solig'i va resurs to'lovlarning stavkalari yildan-yilga oshirilishi bilan izohlanadi. Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslangan holda xulosa qilishimiz mumkinki, mamlakatimiz Davlat budjeti daromadlari yildan-yilga oshib bormoqda va shunga mos ravishda soliqlarning ham ahamiyati oshishi kuzatilmoqda.

Soliqlarning budjet daromadlarining manbai sifatida, birinchidan, soliqlar davlatning funktsiyalarini bajarishning asosiy va birlamchi moliyaviy manbai hisoblanadi; ikkinchidan, soliqlarning milliy daromadni qayta taqsimlashdagi roli bevosita davlatning iqtisodiyotga aralashuvi darajasi bilan belgilanadi; uchinchidan, soliqlardan budjetning iqtisodiy mazmundagi xarajatini moliyalashtirishda foydalanish masalasiga alohida e'tibor berish amaliy ahamiyat kasb etadi, chunki rivojlanayotgan davlatlarda iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish davlatning iqtisodiyotga faol moliyaviy aralashuvini zarur qilib qo'yadi;

to'rtinchidan, soliqqa tortish tamoyillarini buzilishiga yo'l qo'ymaslik soliq tushumlarining barqarorligiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi; beshinchidan, respublikamiz iqtisodiyotining investitsion resurslarga bo'lgan yuqori darajadagi talabini qondirish maqsadida soliqlarning jamg'armalarga ta'sirini ilmiy jihatdan o'rganish nazariy va amaliy ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Respublikasi hududida:

1. Umumdavlat soliqlari;
2. Mahalliy soliqlar va yig'imlar amal qiladi.

Hozirgi kunda mamlakat soliqlari va boshqa majburiy to'lovlar tizimi quyidagilardan iborat.

<b>T/r</b>	<b>Umumbelgilangan soliqlar</b>
<b>Soliqlar</b>	
1.	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i
2.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i
3.	Qo'shilgan qiymat solig'i
4.	Aksiz solig'i
5.	Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar
6.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq
7.	Mol-mulk solig'i
8.	Yer solig'i
9.	Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i
10.	Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq
<b>Boshqa majburiy to'lovlar</b>	
1.	Yagona ijtimoiy to'lov
2.	Fuqarolarning budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari
3.	Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar
4.	Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar
5.	Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar
6.	Davlat boji
7.	Bojxona to'lovlari
8.	Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im
<b>Soliq solishning soddalashtirilgan tartibida to'lanadigan soliqlar</b>	
1.	Yagona soliq to'lovi
2.	Yagona yer solig'i
3.	Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq

***1-rasm. O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar<sup>15</sup>***

Shu paytga qadar majburiy ajratmalar va to'lovlar Soliq kodeksiga kiritilmagan edi. Ushbu majburiy ajratmalar va to'lovlar mazmun-mohiyati

<sup>15</sup> O'zR Soliq kodeksi asosida ishlab chiqilgan.

jiyatidan soliqlardan hech qanday farqi bo'lmaganligi va barcha korxonalar uchun majburiy tusga ega ekanligidan, ular keyingi yillarda soliqlarga tenglashtirilib kelindi. 2008 yil 1 yanvardan yangi Soliq kodeksining amalga kiritilishi bilan ular batamom ushbu kodeksga kiritildi.

Hozirgi vaqtda dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida soliqlar davlat budjeti daromadlarining birlamchi manbai hisoblanadi. Rivojlangan industriya davlatlarda, xususan, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya va Kanadada soliqlar davlat budjeti daromadlarining 90 foizgacha bo'lgan qismini, AQSHda esa 70 foizdan ortiq qismini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlarining asosiy (90 foizdan ortiq) qismi soliq tushumlaridan iborat.

Soliqlarning budjet daromadlarining manbai sifatida, birinchidan, soliqlar davlatning funksiyalarini bajarishning asosiy va birlamchi moliyaviy manbai hisoblanadi; ikkinchidan, soliqlarning milliy daromadni qayta taqsimlashdagi roli bevosita davlatning iqtisodiyotga aralashuvi darajasi bilan belgilanadi; uchinchidan, soliqlardan budjetning iqtisodiy mazmundagi xarajatini moliyalashtirishda foydalanish masalasiga alohida e'tibor berish amaliy ahamiyat kasb etadi, chunki rivojlanayotgan davlatlarda iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish davlatning iqtisodiyotga faol moliyaviy aralashuvini zarur qilib qo'yadi; to'rtinchidan, soliqqa tortish tamoyillarini buzilishiga yo'l qo'ymaslik soliq tushumlarining barqarorligiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi; beshinchidan, respublikamiz iqtisodiyotining investitsion resurslarga bo'lgan yuqori darajadagi talabini qondirish maqsadida soliqlarning jamg'armalarga ta'sirini ilmiy jihatdan o'rganish nazariy va amaliy ahamiyatga egadir.

Davlat byudjetining daromad manbalari turli xil manbalardan tashkil topsada, lekin aksariyat daromadlar soliqlar va soliq funksiyasini bajaruvchi majburiy to'lovlardan tarkib topishini dunyo mamlakatlari amaliy tajribasi tasdiqlab turibdi.

Soliqlarning budjet daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyatini Mirzo-Ulug'bek tumani misolida ko'rib chiqamiz.



**Mirzo-Ulug'bek tumani bo'yicha soliq tushumlarining tahlili<sup>16</sup>**

Ko'rsatkichlar	2013 yil		2014 yil		2015 yil	
	mlrd.so'm	foiz	mlrd.so'm	foiz	mlrd.so'm	foiz
1. To'g'ri soliqlar	226,8	57,6	258,4	58,9	283,1	58,0
2. Egri soliqlar	129,4	32,8	128,9	29,5	147,2	30,2
3. Mol-mulk solig'i va resurs soliqlari	29,8	7,5	41,3	9,4	49,6	10,1
4. Boshqa daromadlar	7,9	2,1	9,7	2,2	7,7	1,6
<b>Jami tushumlar</b>	<b>393,9</b>	<b>100</b>	<b>438,3</b>	<b>100</b>	<b>487,6</b>	<b>100</b>

Keltirilgan jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, Mirzo Ulug'bek tumanida undiriladigan soliqlar 2013 yilda 393,9 mlrd.so'mni, 2014 yilda 438,3 mlrd,so'mni, 2015 yilda 487,6 mln.so'mni tashkil etgan. Tumanda undiriladigan soliqlar tarkibida to'g'ri soliqlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, 2013-2015 yillarda jami soliq tushumlarining 57,6; 58,9 va 58,0 foizini tashkil etgan. Egri soliqlarning jami soliq tushumlaridagi ulushi ushbu yillarda 32,8; 29,5 va 30,2 foizni tashkil etgani holda, ular ulushining ortishi kuzatilgan. Mol-mulk solig'i va resurs soliqlarining ulushi 7,8; 9,4; va 10,1 foizni tashkil etgan. Tahlil etilayotgan yillarda mol-mulk va resurs soliqlarining salmog'i muntazam o'sish tendentsiyasiga ega. Tumanda mol-mulk solig'i va resurs soliqlarining ulushining ortishiga tumanda soliq to'lovchilarning ko'payishi hamda soliq stavkalarining yildan-yilga oshirilib borilishi sababdir.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, tumanda undiriladigan soliqlar va yig'imlar tarkibida to'g'ri soliqlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan olinadigan yagona soliq to'lovidan davlat

<sup>16</sup> Mirzo-Ulug'bek tumani DSI ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

budjetiga ajratma, yagona soliq to'lovidan davlat budjetiga ajratma, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy soliq va obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i tumandagi soliq tushumlarining yarmidan ortig'ini tashkil etmoqda. Shunga qaramasdan tuman bo'yicha jami soliq tushumlari tarkibida mol-mulk va resurs to'lovlari ulishining ortishi, egri soliqlarning esa kamayishi kuzatilmoqda. Bu holat tumanda korxonalar va aholining real daromadlarining ortib borishi bilan izohlanadi.

Ma'lumki, bugungi kunda soliqlar bilan bevosita bog'liq bo'lmasada, balki bilvoita bog'liq bo'lgan muammolardan biri mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirish bilan bog'liq muammolar hisoblanadi. Undiriladigan soliqlar turli budjet bo'g'inlari o'rtasida taqsimlanadi.

Respublikamizda mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirishni takomillashtirishda, birinchi navbatda hal qilinishi lozim bo'lgan masala hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlash hisoblanadi.

## **2.2. Davlat budjeti solikli daromadlarining guruhlanishi hamda amal qilish mexanizmi**

Davlat majburiyatlarining va ijtimoiy kafolatlarini bajarilishi nafaqat budjet mablag'larining qanday tamoyillar va qoidalarga ko'ra shakllanishi va sarflanishiga, davlat moliyaviy resurslarini qanday boshqarishiga, balki mamlakatni rivojlantirishning strategik maqsadlariga erishishga ham bog'liq.

Bizningcha soliq tizimi va uning amal qilish mexanizmining umumiy asoslari ishlab chiqilganiga qaramay, bu sohada hal qilinishi zarur bo'lgan muammolar erishilgan yutuqlarga nisbatan bisyordir. To'g'ri soliqlar ko'magida iqtisodiyotni tartiblash usullari sifatida soliq imtiyozlaridan amalda foydalanish holatining taxlili va ulardan tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantiruvchi vosita sifatida foydalanishni takomillashtirish masalalari kurilgan. Yuridik shaxslar daromadlari bazasining shakllanishi, undagi muammolar, soliq bazasining shakllanishini soddalashtirish va

jaxon andozalariga moslashtirish masalalari ko‘rilgan. Shuningdek, soliqqa tortiladigan daromadlarni va soliq tushumlarini ko‘paytirishning hozirgi iqtisodiy sharoitiga mos keluvchi yo‘nalishlarini ishlab chiqish buyicha ayrim mulohazalar berilgan.

Soliq tizimida soliq siyosatining olib borilishiga qarab xar bir soliq guruxi budjet daromadidagi salmog‘i bilan farqlanib turadi, hozirgi kunda bizning budjet daromadimizda to‘g‘ri soliqlar solmog‘i jixatidan egri soliqlardan keyingi ikkinchi o‘rinda turadi. Ushbu soliqlarning xususiyatli tomoni shundaki, ular budjet daromadini shakllantirish bilan birga korxonalarni biri-biriga nisbatan iqtisodiy rag‘batlantirib ham turadi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, soliqlar bir vaqtning o‘zida davlat budjetini daromadini ta’minlash bilan birga tarmoqlar iqtisodiyotidagi tijorat va tadbirkorlik asosida faoliyat yuritayotgan xo‘jalik sub’ektlarini rag‘batlantirishga ham undaydigan iqtisodiy vositalardan biri hisoblanadi.

Bizning milliy iqtisodiyotimizda egri soliqlarning barchasi movjud bo‘lib ular davlat budjetining asosiy qismini ta’minlash bilan bir qattorda, korxonalarining moliyaviy faoliyatini rag‘batlantirishga, shuningdek ichki bozorda xorijlik tovarlarning bemiqdor ko‘payib ketishini oldini ham olishda iqtisodiy vosita sifatida foydalanilmoqda.

Shuningdek, tarmoqlar iqtisodiyotida shunday bir korxonalar mavjudki, zotan ular olayotgan daromadlari amalga oshirayotgan harajatlarini to‘liq qoplay olmasada, biroq umumjamiyat uchun o‘ta zarur. Ana shunday korxonalarga non, go‘sht, sut va bolalar oziq-ovqatlarining barcha turdagi mahsulotlariganisbatan aksiz solig‘i joriy etilmagan. Bunday moliyaviy siyosat ayni shu korxonalarni soliq tomonidan rag‘batlantirish bo‘lib, ularning moliyaviy holatiga bilvosita ta’sir ko‘rsatiladi.

Korxonalarga belgilangan bevosita soliqlar ham xo‘jalik sub’ektlarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashga yaqindan yordam ko‘rsatadi. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining bazaviy stavkasi 2013 yildagi 9 foizdan 8

foizga pasaytirilganligi ayrim ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan, xorijiy to'g'ri investitsiyalarni jalb qilayotgan korxonalariga bir qator soliq imtiyozlarini taqdim etmoqda.

Biz mazkur bitiruv malakaviy ishimizda davlat budjeti daromadlarini shakllantiruvchi soliqlarni uch yirik guruxga ajratgan holda ko'rib chiqamiz va dastlab to'g'ri soliqlardan boshlaymiz.

To'g'ri soliqning iqtisodiyotga ta'sirida bevosita omillari ichida soliq imtiyozlari va soliq turlarini yagonalashtirish ham katta ta'sirchanlikka egadir. Soliq imtiyozlari soliq to'lovchilarning faoliyati rag'batlantiriladi, ishlab chiqarishga investitsion resurslarning jamlanishiga zamin yaratadi va investitsion muhitni yaxshilanishiga olib keladi. O'z navbatida soliq imtiyozlarini asoslanmagan ravishda yoki imtiyoz berilishi mazmunga ega bo'lmagan holatda soliq to'lovchini soliqlardan ozod etish yoki soliq bazasini kamaytirilishi birinchidan, soliq to'lovchilarda boqimandachilik kayfiyatini keltirib chiqarsa, ikkinchidan, soliq sifatida budjetga undirilishi lozim bo'lgan mablag'lar jamiyatning taraqqiyotiga emas, balki, soliq imtiyozlarining mohiyatini tushunib etmaydigan va o'z manfaatlarini jamiyat manfaatlari bilan bog'lay olmaydigan soliq to'lovchilarda qoldirilishi hamda uning ishlab chiqarishga emas iste'molga yunaltirilishiga olib kelinadi.

Har qanday soliqlar singari to'g'ri soliqlar ham jamiyatning iqtisodiy taraqqiyotga ham to'g'ridan-to'g'ri ham bilvosita ta'sir etib boradi. To'g'ri soliqlarning soliq to'lovchilar va ular orqali milliy iqtisodiyotga bilvosita ta'sir etish holatlari ham mavjud bo'lib, ular jumlasiga milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etilishini va ichki ishlab chiqaruvchilar tomonidan reinvestitsiyaning amalga oshirishini rag'batlantirish yoki tartiblash; soliq to'lovchilar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulot (xizmat, ish)larning tannarxiga ta'sir etish ya'ni, me'yordan ortiqcha xarajatlarni qaytadan soliq bazasiga qo'shish, soliq mahsulot tannarxiga kiritilgan xarajatlarning ayrim turlarini jami daromaddan chegirish orqali soliq mamlakat miqyosidagi ayrim xujalik yurituvchi sub'ektlarning faoliyati rag'batlantiriladi va zarur hollarda tartiblanadi. Shuningdek, soliq sohasiga

tegishli qonunchilik hujjatlarining mazmuniga fiskal yoki rag'batlantiruvchilik xususiyat berish hamda soliq to'lovchilarning soliq madaniyatini oshirish orqali ham To'g'ri soliqlarning iqtisodiy rivojlanish darajasiga ta'sir etishligini ta'kidlash joiz.

To'g'ri soliqlar shuningdek, soliq to'lovchilarning ishlab chiqarayotgan mahsuloti tarkibiga kiruvchi xarajatlarni jami daromaddan chegirish yoki to'g'ri soliqning bazasini aniqlashda ma'lum toifadagi xarajatlarni qo'shish orqali soliq to'lovchilarning faoliyatiga qolaversa, milliy iqtisodiyotga ta'sir etadi. Bu ta'sir orqali korxonalar tomonidan unumsiz xarajatlarni amalga oshirishga ma'lum darajada iqtisodiy jihatdan to'siqlar qo'yiladi va investitsion xarakterga ega bo'lgan xarajatlarni amalga oshirish orqali ichki investitsiyaning o'sishiga erishiladi. Bilvosita ta'sir xarakteriga ega bo'lgan omillardan yana birlari to'g'ri soliqlar bo'yicha soliq qonunchiligining holati va mazmuni hamda soliq to'lovchilar va soliq undiruvchilarda soliq madaniyatining darajasidir. Agar, soliq qonunchiligi fiskal xarakterga ega bo'lsa, nafaqat soliq to'lovchilar faoliyatiga qolaversa, iqtisodiyotga ham salbiy ta'sir etadi. O'z navbatida soliq to'lovchilar tomonidan soliqlarning vaqtida to'lanishi birinchidan soliq tushumlarning o'z vaqtida budjetga kelib tushishi va budjetdan moliyalashtiriladigan xarajatlarning bir maromda amalga oshirilishiga erishiladi hamda soliq qonunchiligining buzilish holatlari kamayib tekshirish bilan bog'liq ortiqcha xarajatlar tejaladi.

To'g'ri soliqlar soliq to'lovchilar faoliyatiga va ular orqali milliy iqtisodiyotga turlicha ta'sir etib, bu ta'sir ayrim hollarda ijobiy holatlarni ta'min etsa, ba'zi hollarda salbiy oqibatlarni keltirib chiqarish xususiyatiga ega. Bunday holatlarning ichki mazmunini aniqroq ochib berish esa to'g'ri soliqlarning aniq soliq to'lovchilar faoliyatiga ta'sir etishning turli jihat va qirralarini iqtisodiy jihatdan tahlil etish orqali amalga oshiriladi. Shundan kelib chiqqan holda biz ishimizning ushbu bobining keyingi bandida to'g'ri soliqlarning iqtisodiy faoliyatga ta'sir etish mexanizmining amaliy holatlarini tahlil etishga va ma'lum ilmiy xulosalarni olishga harakat qilamiz.

**To'g'ri soliqlarning Mirzo-Ulug'bek tuman budjeti daromadlarini  
shakllantirishdagi ahamiyatini tahlili<sup>17</sup>**

(foizda)

Ko'rsatkichlar	2013 yil	2014 yil	2015 yil
<b>To'g'ri soliqlar</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>
1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	3,5	5,0	5,9
2. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan olinadigan yagona soliq to'lovidan davlat budjetiga ajratma	23,5	17,6	11,9
3. Yagona soliq to'lovidan davlat budjetiga ajratma	19,4	19,8	21,3
4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	39,8	40,0	41,2
5. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy soliq	9,4	10,9	16,0
6. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	4,4	6,7	3,7

Jadval ma'lumotlarining tahlili ko'rsatmoqdaki, to'g'ri soliqlar tarkibida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ulushi yuqori ko'rsatkichga ega bo'lib tumanda undiriladigan to'g'ri soliqlarning yarmini tashkil etmoqda. Jumladan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining to'g'ri soliqlar tarkibidagi ulushi 2013 yilda 39,8 foizni, 2014 yilda 40,0 foizni tashkil etgani holda, 2015 yilda 41,2 foizni tashkil etgan.

Foyda solig'ining to'g'ri soliqlar tarkibidagi ulushi esa 3,5; 5,0 va 5,9 foizni tashkil etib, to'g'ri soliqlar tarkibidagi ulushi yildan-yilga ortib borish tendensiyasiga ega.

To'g'ri soliqlar tarkibida ham yagona soliq to'lovidan davlat budjetiga ajratmaning ulushi 19,4; 19,8 va 21,3 foizni tashkil etgan.

<sup>17</sup> Mirzo-Ulug'bek tumani DSI ma'lumotlari asosida hisoblandi.

Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan olinadigan yagona soliq to'lovidan davlat budjetiga ajratmaning ulushi 2013 yilda 23,5 foizni, 2014 yilda 17,6 foizni tashkil etgani holda, 2015 yilda 11,9 foizni tashkil etgan va so'nggi yillarda kamayish kuzatilgan. Tahlil etilayotgan yillarda to'g'ri soliqlarning davlat budjeti solikli daromadlaridagi ulushi so'mmalarda oshib borish tendensiyasiga ega bo'lganligini kurishimiz mumkin.

To'g'ri soliqlarning davlat budjeti daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyatining tahlili ko'rsatmoqdaki, ulardan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ulushini kupayib borishi kuzatilgan bo'lsa, qolgan barcha soliqlar barqarorligi kuzatilgan.

Rivojlangan mamlakatlar soliq-budjet siyosatidan farqli ravishda, respublikamiz budjeti daromadlarining asosiy qismi yuridik shaxslar to'laydigan soliqlar va majburiy to'lovlar hisobiga shakllantiriladi. Bu holat yuridik shaxslarni soliqqa tortishning samarali mexanizmini yaratish orqali davlat budjeti daromadlarini to'liq va vaqtida shakllantirish mumkinligini namoyon etadi.

Egri soliqlarning asosiy funksiyasi davlat budjeti daromadlarini shakllantirishdan iborat, ya'ni u fiskal funksiyani to'liq bajaradi. Shuning bilan birga bozor iqtisodiyoti sharoitida sari egri soliqlar fiskal funksiyani bajarishi bilan birga boshqa vazifalarni ham bajaradi. Davlat iqtisodiyotni tartibga solish va ichki milliy bozorni rivojlantirishda hamda himoyalashda asosan, egri soliq'larga tayanadi. Davlat egri soliqlar orqali mamlakat hududiga ayrim tovarlarni ko'proq olib kirish yoki olib chiqish va buning aksini ifodalovchi vazifalarni bajarishi mumkin.

Egri soliqlar mahsulot bahosiga yoki xizmat ta'rifiga ustama shaklda qo'yilib, olinadigan soliqdir. Egri soliqlar soliq to'lovchining daromadiga yoki mol-mulkiga ta'sir etmaydi. Shuning uchun bu soliqlar to'lovchining moliyaviy faoliyatiga ta'sir ko'rsatmaydi va to'lovchilarga soliq yuki tushmaydi. Soliq yuki egri soliq o'rnatilgan tovarlar (ish, xizmat ) ni iste'mol qiluvchilarga tushadi.

Egri soliqlar bugungi kunda davlat budjeti daromadlarini shakllantirishdagi asosiy soliqlar hisoblanadi. Rivojlangan davlatlar soliq amaliyotida, budjet daromadlarida egri soliqlar salmog‘i past darajada bo‘lib, rivojlanayotgan mamlakatlarda budjet daromadlari tarkibida egri soliqlar salmog‘i birinchi o‘rinni egallasa, rivojlangan davlatlarda budjet daromadlari tarkibida to‘g‘ri soliqlar birinchi o‘rinni egallaydi. Bizning respublikamiz ham rivojlanayotgan davlat hisoblanganligi bois, egri soliqlar davlat budjetida etakchi o‘rinni egallaydi.

Egri soliqlar budjet daromadlarini shakllantirishda asosiy soliqlardan hisoblanadi. Budjet daromadlari tarkibida eng yuqori soliq tushumlari ushbu soliqlardan tashkil topadi. Birgina qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘i davlat budjeti daromadlarining 45 foizidan ortig‘ini shakllantiradi. Demak, egri soliqlarning budjet daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyatini o‘rganish va ularni tahlil qilish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Egri soliqlarning budjet daromadlarini shakllantirishdagi roli va o‘rnini ko‘rib o‘tamiz.

Bilvosita soliqlar bo‘yicha tushum summasining ortishining asosiy manbasi sifatida mamlakatimiz iqtisodiyotining real sektori korxonalarini muvaffaqiyatli faoliyat olib borayotganligidir.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, bilvosita soliqlar davlat budjeti daromadlarining hal kiluvchi kismini tashkil etadi. Bizning fikrimizcha, mamlakatimiz budjeti daromadlarida bilvosita soliqlarning salmog‘ini oshirish va ayniqsa, qo‘shilgan qiymat va aksiz soliqlarini budjet daromadlaridagi barkarorligini ta‘minlash lozim. Bundan tashqari, qo‘shilgan qiymat solig‘ini undirishda soliqni oldindan undirish holatlarini yo‘q qilish lozim. Buni shunday izohlash mumkinki, qo‘shilgan qiymat solig‘ida soliqning budjetga to‘lanishi ishlab chiqarilgan mahsulot sotilishidan oldingi davrga to‘g‘ri kelmokda. Bu o‘z navbatida, korxonaning moliyaviy holatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatib, korxonaning investitsion faoliyatini qisqartiradi. ya‘ni, soddarok kilib aytadigan bo‘lsak, mavjud bo‘lmagan daromad uchun soliq olinadi. Bu o‘z-o‘zidan milliy ishlab chikarishga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi va kelajakda korxonalar tomonidan davlat



budgetiga to'lanadigan soliqlarning qisqarishiga va natijada, budget daromadlarining kamayishiga olib keladi.

Budget daromadlarida egri soliqlarning yuqoriligi, to'g'ri soliqlarning pastligini ifodalaydi va ishlab chiqaruvchilarga soliqlardan katta imtiyoz borligini ham ko'rsatadi. Chunki, soliq tizimi tarkibi ikki guruhga bo'linib, egri va to'g'ri soliqlarni tashkil etadi. Birining stavkasini pasaytirish bilan birining stavkasi oshiriladi. Lekin, oxirgi yillarda davlat budjeti daromadlarida egri soliqlar salmog'i pasayib bormoqda. Bivosita soliqlar salmog'ining pasayish sabablarini va bu pasayishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun egri soliqlar tarkibini tahlil qilish lozim. Bunda qaysi soliqlarda asosan pasayish kuzatilgan va bunga qanday omillar ta'sir etganini aniqlash lozim bo'ladi.

8-jadval

**Mirzo-Ulug'bek tumanida egri soliqlarning budget daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati va ular tarkibini tahlili<sup>18</sup>**

(foizda)

<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>2013 yil</b>	<b>2014 yil</b>	<b>2015 yil</b>
<b>Jami solikli daromadlar</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shundan:</i>			
<b><i>Egri soliqlar</i></b>	<b>32,8</b>	<b>29,5</b>	<b>30,2</b>
1. Qo'shilgan qiymat solig'i	18,3	15,5	16,0
2. Aksiz solig'i	9,2	8,8	8,9
3. Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq	5,3	5,2	5,3

Jadval ma'lumotlarining tahlili tuman budget daromadlarining aksariyat qismi qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda. Soliqlar tarkibida qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i yuqori o'rinni egallaydi.

Jadval ma'lumotlarining tahlili ko'rsatmoqdaki, Mirzo-Ulug'bek tumani mahalliy budjeti solikli daromadlarining umumiy summasi yildan-yilga o'sib

<sup>18</sup> Mirzo-Ulug'bek tumani DSI ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

bormoqda, ya'ni 2013 yilda 393,9 mlrd.so'mni, 2014 yilda 438,3 mlrd,so'mni, 2015 yilda 487,6 mln.so'mni tashkil etgan. tashkil etgan.

Mirzo-Ulug'bek tumani mahalliy budjeti daromadlarini shakllantirishda egri soliqlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular summasining ham yildan yilga o'sib borishi bilan birga, jami daromadlar tarkibidagi ulushi ham ortib bormoqda.

Egri soliqlar 2013 yilda jamiga nisbatan 32,8 foizni, 2014 yilda jamiga nisbatan 29,5 foizni tashkil etgani holda, 2015 yilda jamiga nisbatan 30,2 foizni tashkil etgan. Egri soliqlarning jami soliqlar tarkibidagi ahamiyati yillar bo'yicha o'sishi kuzatilgan.

Demak, egri soliqlar respublikamiz davlat budjeti daromadlarining qariyb yarmisini tashkil etmoqda. 4-5 turdagi soliqlarning bu darajada davlat budjeti daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyatining yuqoriligi mazkur guruh soliqlarining iqtisodiyotdagi soliq yuki darajasidagi ahamiyatining yuqoriligidan dalolat beradi.

Egri soliqlar tarkibida qo'shilgan qiymat solig'i muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning budjet daromadlaridagi ulushi 2013 yilda 18,3 foizni, 2014 yilda 15,5 foizni tashkil etgani holda, 2015 yilda 16,0 foizni tashkil etgan.

Aksiz solig'i muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning budjet daromadlaridagi ulushi 2013 yilda 9,2 foizni, 2014 yilda 8,8 foizni tashkil etgani holda, 2015 yilda 8,9 foizni tashkil etgan.

Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqning budjet daromadlaridagi ulushi 2013 yilda 5,3 foizni, 2014 yilda 5,2 foizni tashkil etgani holda, 2015 yilda 5,3 foizni tashkil etgan.

Budjet daromadlarida egri soliqlarning yuqoriligi, to'g'ri soliqlarning pastligini ifodalaydi va ishlab chiqaruvchilarga soliqlardan katta imtiyoz borligini ham ko'rsatadi.

Iqtisodiyotga tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun soliqlar va boshqa iqtisodiy vositalarni (to'lovlar, litsenziyalash) joriy qilish xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir ko'rsatishi, tabiiy resurslarga

doir jamiyat manfaatlarini himoya qilishi, tabiiy resurslardan samarali va oqilona foydalanishni ta'minlashga qaratilgan texnologiyalarga investitsiyalarni rag'batlantirishdagi to'g'ri ekologik muvozanatni ta'minlashi lozim.

Tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun soliqlarning joriy etilishi tabiatdan foydalanishni iqtisodiy tartibga solish, turli xil tabiiy resurslardan samarali va oqilona foydalanish, tabiatni, qolaversa, tabiiy resurslarni muhofaza qilish va takror ishlab chiqarish uchun moliyaviy resurslarni shakllantirish kabi maqsadlarni ko'zlaydi. Ular er, suv resurslaridan, er osti boyliklaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish samarasini oshirishga, mineral-xom ashyo resurslarini qazib olish va ulardan oqilona foydalanishga qaratiladi.

Davlatning tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun soliq siyosati ikki yo'nalishda, ya'ni tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun maxsus soliqlar joriy etish va imtiyozli soliqqa tortish, ya'ni soliqdan ozod qilish asosida amalga oshiriladi.

Respublikamizda amalga oshirilgan va davom etayotgan soliq tizimini shakllantirish va takomillashtirishga qaratilgan islohotlar jarayonida tabiiy resurs soliqlariga katta e'tibor qaratib kelinmoqda. Hozirgi paytga kelib tabiiy resurs soliqlari respublika soliq tizimining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. SHunga qaramasdan, jahon amaliyotida bo'lgani kabi respublikamiz zamonaviy soliq tizimida ham davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda asosiy e'tibor qo'shilgan qiymat, daromad (foyda)dan va aholidan olinadigan soliqlarga qaratilgan, ya'ni soliq yukining asosiy qismi mehnat va kapitalga to'g'ri keladi.

Tabiiy resurs soliqlarining asosiy vazifasi fiskal vazifa ekanligini va davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda ular ahamiyatini oshirish lozimligi borasida bir qator fikrlarni o'rgangan edik. Shu o'rinda respublikamiz davlat budjeti daromadlarida tabiiy resurs soliqlarining tutgan o'рни va ahamiyatini har tomonlama o'rganish, o'zgarish tendensiyalarini aniqlash, ta'sir etuvchi omillarni tahlil va tadqiq etish maqsadga muvofiq. Shuningdek, bu yana shu bilan ifodalanadiki, respublikamiz soliq tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblangan

tabiiy resurs soliqlarini davlat budjeti manfaatlari nuqtai-nazaridan takomillashtirishga qaratilgan yo‘nalishlarni belgilashda ham muhim ahamiyatga ega.

9-jadval

**Resurs to‘lovlarining Mirzo-Ulug‘bek tumani budjeti daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyatining tahlili<sup>19</sup>**

(foizda)

Ko‘rsatkichlar	2013 yil	2014 yil	2015 yil
<b>Jami solikli daromadlar</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shundan:</i>			
<b>Mol-mulk solig‘i va resurs to‘lovlari</b>	<b>7,5</b>	<b>9,4</b>	<b>10,1</b>
1. Mol-mulk solig‘i	3,2	3,6	3,7
2. Yer solig‘i	3,6	4,0	4,1
3. Yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq	0,6	1,7	2,2
4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	0,1	0,1	0,1

Jadval ma‘lumotlarining tahlili ko‘rsatmoqdaki, 2013-2015 yillarda tuman solikli daromadlari tarkibida yer solig‘ining tuman solikli daromadlari tarkibidagi ulushi boshqa resurs soliqlaridan yuqori bo‘lib, 2013 yilda 3,6 foizni, 2014 yilda 4,0 foizni, 2015 yilda ham 6,1 foizni tashkil etgan.

Mol-mulk solig‘ining ulushi 2013 yilda 3,2 foizni tashkil etgani holda, 2014 yilda 3,6 foizni, 2015 yilda 3,7 foizni tashkil etgan.

Yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliqning tuman solikli daromadlari tarkibidagi ulushi 2013 yilda 0,6 foizni, 2014 yilda 1,7 foizni, 2015 yilda ham 2,2 foizni tashkil etgan va tahlil etilayotgan yillarda muntazam o‘sib boorish tendensiyasiga ega bo‘lgan.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning resurs to‘lovlari tarkibidagi ulushi 2013-2015 yillarda 0,1 foizni tashkil etgan.

Davlat budjeti daromadlarida resurs soliqlaridan mol-mulk solig‘i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq qisman barqarorlikka ega bo‘lsa, yer

<sup>19</sup> Mirzo-Ulug‘bek tumani DSI ma‘lumotlari asosida tayyorlandi.

solig'i va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning so'nggi yillarda keskin o'sishi kuzatilmoqda.

Ushbu keltirilgan ma'lumotlarni o'rganish natijasida tabiiy resurs soliqlarining davlat budjeti daromadlari tarkibidagi ulushi borasida umumiy xulosaga kelish mumkin bo'lsa-da, ularning o'zgarish darajalariga to'g'ri baho berish imkoni mavjud emas. Jumladan, bizningcha, davlat budjeti daromadlari tarkibidagi o'zgarishlarga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

- davlat budjeti daromadlari umumiy hajmining o'zgarishi;
- davlat budjeti daromadlari tarkibida har bir soliq ulushining o'zgarishi;
- soliq turlari bo'yicha oldindan to'langan va boqimanda summalarining o'zgarishi va boshqalar.

Demak, davlat budjeti daromadlari tarkibida tabiiy resurs soliqlari ulushining o'zgarishiga ham yuqorida qayd etilgan omillar ta'sir ko'rsatgan. So'nggi yillarda tabiiy resurs soliqlarini davlat budjeti daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati oshib bormoqda. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda tabiiy resurs soliqlariga ustuvorlik berilayotganligi, amalda ular tushumining budjetdan tabiiy resurslarni va atrof-muhitni muhofaza qilish, sifatini yaxshilash tadbirlari uchun amalga oshirilayotgan xarajatlardan ancha kamni tashkil etayotganligi bilan izohlanadi.

Tahlillar ko'ratmoqdaki, tuman mahalliy budjeti daromadlari tarkibida soliqlar va soliqqa tenglashtirilgan majburiy to'lovlarning ulushi yuqori. Bu holat tuman iqtisodiyotining rivojlanganligi va soliqqa tortiladigan bazaning yuqoriligi bilan izohlanadi.

Shu o'rinda tabiiy resurslarga boy o'lkamizda ulardan samarali va oqilona foydalanishni yo'lga qo'yishda tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun maxsus soliqlarning maqbul tizimining joriy etilishi, bir tomondan tabiiy resurslarni davrlar bo'yicha teng taqsimlagan holda ulardan samarali va oqilona foydalanish zarurati bilan ifodalansa, ikkinchi tomondan, tabiiy resurslarni qayta tiklash va

sifat holatini yaxshilash uchun davlat xarajatlarini moliyalashtirish zarurati bilan belgilanadi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, respublikamiz soliq tizimida xo‘jalik sub’ektlarining tabiiy resurslardan foydalanishi bilan bog‘liq soliqlar joriy etilgan bo‘lsa-da, ularning amaldagi mexanizmini tabiiy resurslardan foydalangalik uchun soliqlar va to‘lovlarning nazariy tamoyillari bilan qiyoslaydigan bo‘lsak, bu borada qator muammolarni ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, so‘nggi yillarda respublikamiz soliq tizimini isloh qilishda soddalashtirilgan soliqqa tortish tartiblariga keng e‘tibor berilishi natijasida xo‘jalik sub’ektlarining tabiiy resurslardan foydalanishini va ularning atrof-muhitga ta‘sirini soliqlar vositasida rag‘batlantirishga deyarli e‘tibor berilmayapti. Natijada respublikamizda tabiiy resurslardan foydalanishda iqtisodiy mexanizmlar samarasini pasaytirishga olib kelmoqda.

Bu holat respublikamiz soliq tizimini tabiiy resurslardan foydalangalik uchun soliqlar va to‘lovlarning nazariy tamoyillaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish lozimligini taqozo etadi.

Tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun soliqlarning mohiyati xo‘jalik sub’ektlarining tabiiy resurslarni u yoki bu ko‘rinishda iste‘mol qilishi bilan bog‘liq pulli munosabatlar bilan ifodalanadi. Bu pulli munosabatlar tabiiy resurslardan samarali va oqilona foydalanishga, tabiiy resurslardan foydalanishda ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni tenglashtirishga, tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ularni qayta tiklash hamda sifatiiy holatini yaxshilash uchun moliyaviy resurslarni shakllantirishga qaratilgan.

Tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun soliqlar ko‘pincha resurs soliqlari sifatida e‘tirof etilib, ular xo‘jalik sub’ektlarining tabiiy resurslardan foydalanishini muayyan darajada tartibga solib turadi. Agarda so‘ngi yillarda mamlakatimiz soliq tizimidagi o‘zgarishlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun soliqlarga ko‘proq e‘tibor qaratilmoqda. Shunga qaramasdan, ayrim sohalar uchun ixchamlashtirilgan soliq tizimini joriy etilishi

ham kengayib bormoqda. Masalan, mikrofirma va kichik korxonalar, qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari va shu kabilar bir qator umumdavlat soliqlari va yig'implari, jumladan, tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun soliqlar o'rniga yagona soliq turlaridan birini to'laydilar.

Mamlakatimiz soliq tizimidagi yagona soliq turlari asosan soliqlarning fiskal ahamiyatini e'tiborga olgan holdagi vazifani bajaradi, biroq tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun soliqlar fiskal ahamiyat kasb etishi bilan birga tartibga soluvchi, rag'batlantiruvchi ahamiyatga ham ega. Bunda yagona soliq tizimiga o'tgan xo'jalik sub'ektlarining tabiiy resurslardan foydalanishini tartibga solish va rag'batlantirishda iqtisodiy usulning eng samarali vositasi hisoblangan soliqlar orqali ta'sir doirasi kamroqdir.

Mamlakatimiz va xorij olimlari, mutaxassislarining ayrimlarining g'oyalarida foyda solig'ini kamaytirish va resurs soliqlarini oshirish lozimligi ilgari surilsa, ba'zilar davlat budjeti daromadalarining asosiy qismini resurs soliqlari orqali shakllantirish g'oyasiga ustuvorlik beradi.

Soliq yukini haddan ortiq qismini tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun soliqlarga yuklash soliqlarning adolatlilik tamoyiliga zid keladi. Bir tomondan bu holat iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitiga mos kelishi mumkin. Chunki, soliq yukining asosiy qismi resurs soliqlariga to'g'ri kelsa, soliq manbasi xo'jalik sub'ektlarining daromadi (foydasi) bo'lgani bilan foydani yashirishga bo'lgan intilish hech qanday ma'no kasb etmaydi, chunki resurs soliqlari uchun soliq solish ob'ekti resurslardan foydalanish miqdori hisoblanadi. Lekin, bunda soliqlarning adolatlilik tamoyilining buzilishi xo'jalik sub'ektlarining tadbirkorlik shakliga muvofiq tarzda amalga oshadi. Tadbirkorlikning barcha shakllari foyda olishga qaratilsada, ular bu maqsadga qaratilgan faoliyatda tabiiy resurslarni turli miqdorda iste'mol qiladi.

## **Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar**

Davlat budjetining solikli daromadlarini shakllantirish tartibini tahlil etish jarayonida qayd etilgan xulosalar:

– milliy iqtisodiyotimizda egri soliqlarning barchasi mavjud bo'lib ular davlat budjetining asosiy qismini ta'minlash bilan bir qattorda, korxonalarining moliyaviy faoliyatini rag'batlantirishga, shuningdek ichki bozorda xorijlik tovarlarning bemiqdor ko'payib ketishini oldini ham olishda iqtisodiy vosita sifatida foydalanilmoqda;

– davlat budjeti daromadlari tarkibida tabiiy resurs soliqlari ulushining o'zgarishiga ham yuqorida qayd etilgan omillar ta'sir ko'rsatgan. So'nggi yillarda tabiiy resurs soliqlarini davlat budjeti daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati oshib bormoqda. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda tabiiy resurs soliqlariga ustuvorlik berilayotganligi, amalda ular tushumining budjetdan tabiiy resurslarni va atrof-muhitni muhofaza qilish, sifatini yaxshilash tadbirlari uchun amalga oshirilayotgan xarajatlardan ancha kamni tashkil etayotganligi bilan izohlanadi;

– to'g'ri soliqlar soliq to'lovchilar faoliyatiga va ular orqali milliy iqtisodiyotga turlicha ta'sir etib, bu ta'sir ayrim hollarda ijobiy holatlarni ta'min etsa, ba'zi hollarda salbiy oqibatlarni keltirib chiqarish xususiyatiga ega. Bunday holatlarning ichki mazmunini aniqroq ochib berish esa to'g'ri soliqlarning aniq soliq to'lovchilar faoliyatiga ta'sir etishning turli jihat va qirralarini iqtisodiy jihatdan tahlil etish orqali amalga oshiriladi; Egri soliqlar bugungi kunda davlat budjeti daromadlarini shakllantirishdagi asosiy soliqlar hisoblanadi. Bizning respublikamiz ham rivojlanayotgan davlat hisoblanganligi bois, egri soliqlar davlat budjetida etakchi o'rinni egallaydi.

- respublikamiz davlat budjeti daromadlarida tabiiy resurs soliqlarining tutgan o'rni va ahamiyatini har tomonlama o'rganish, o'zgarish tendensiyalarini aniqlash, ta'sir etuvchi omillarni tahlil va tadqiq etish maqsadga muvofiq.



### **III.BOB.IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA SOLIQLARNING BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATINI OSHIRISH MASALALARI**

#### **3.1.Soliqlarning budjet daromadlarini tashkil qilish jarayonidagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish**

Mamlakat iqtisodiyotini imodirizatsiyalash jarayonida moliya tizimining eng muhim va murakkab unsuri bo'lgan moliyaviy resurslarning shakllanishi va ularning budjet tizimidagi taqsimlanishi alohida o'rin egallaydi. Moliyaviy resurslar avvalo xo'jalik yurutuvchi subyektlar faoliyatida yuzaga keladi va bu jarayonda qayta taqsimlanib, davlatning moliyaviy resurslarini shakllantiradi.

Davlat moliyaviy resurslarini mavjud bo'lishining eng muhim obyektiv omillaridan biri- bu davlatni o'z funksiyalarini amalga oshirish uchun muayyan miqdorda moliyaviy mablag'larga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqadi.

Amalga oshirilgan budjet-soliq siyosati birinchidan, iqtisodiyotning istiqbolli soha va tarmoqlarini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimida muhim fiskal omillardan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Ikkinchidan, amaldagi faol ijtimoiy siyosat va kuchli ijtimoiy himoya tizimlarini shakllantirishda davlat budjetiga alohida vazifalar yuklatilgan bo'lib, ushbu vazifalarni samarali ijrosi ta'minlanmoqda. Keyingi yillarda amalga oshirilgan islohotlar natijasida davlat moliyasining barqarorligi kuzatildi.

Soliqlar davlatning asosiy moliyaviy resurslaridan biri bo'lib, murakkab iqtisodiy munosabatlarni qamrab oladi. Soliq siyosatini takomillashtirish, soliqlarning iqtisodiyotga rag'batlantiruvchi ta'sirini kuchaytirish maqsadida soliq tizimini ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy, tabiiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan, to'plangan mol-mulkdan samarali foydalanishga rag'batlantiruvchi ta'sirini oshirishga qaratilgan islohotlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Korxonalar zimmasidagi soliq yukini kamaytirish, foyda solig'i va yagona soliq to'lovi

stavkalarini pasaytirish orqali iqtisodiyotdagi sog'lom muhitni shakllantirish va tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini yanada jonlantirish ta'minlanadi<sup>20</sup>.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va yangilash sharoitida mamlakatimizda budjet-soliq siyosatini yaxshilash, moliyaviy resurslardan unumli foydalanish, iqtisodiyotda ishlab chiqarish tarmoqlari tarkibini yanada takomillashtirish, markazlashgan investitsiya rejalarini belgilashni takomillashtirish, fan-texnika taraqqiyotini ta'minlovchi tarmoqlar rivojini belgilash hamda aholini ijtimoiy himoyalash tizimini yaxshilash bugungi kunning dolzarb vazifalari hisoblanadi. Ishlab chiqarishni rivojlantirish, ularning investitsion salohiyatlarini oshirish, albatta, davlatning fiskal siyosati bilan chambarchas bog'liq. Fiskal siyotning ishlab chiqaruvchilar faoliyatiga ta'sir etishning qulay iqtisodiy vositasi bu soliq yuki hisoblanadi. Soliqqa doir muammolar ichida soliq yuki muammosi markaziy o'rinni egallaydi. Chunki korxonalarining moliyaviy holatiga bevosita ta'sir etadi. Korxonaning foyda olish natijasi aynan soliq yukiga borib taqaladi. Iqtisodiyot tarmoqlarida soliq yukining og'ir yoki engil bo'lishi ularning ishlab chiqarish faoliyatiga salbiy yoki ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu mamlakat makroiqtisodiy barqarorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi va iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasida notekis taqsimlanishiga olib keladi, xatto ayrim tarmoqlarda o'sish sur'atlari pasayib ketishi mumkin. Soliq yukini mintaqalar, tarmoqlar va sohalar o'rtasida imkoniyat darajasida tenglashtirish o'z navbatida mintaqaviy iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarining bir xil iqtisodiy rivojlanishiga olib keladi. Bizning fikrimizcha, mamlakatdagi soliq yukini kamaytirish tendensiyasini yanada chuqur tahlil qilish uchun alohida soliq turlari bo'yicha soliq yukini o'rganish lozim. Ma'lumki, soliq – bu mamlakatimizning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, ma'rifiy ehtiyojlari va davlat qurilishi, iqtisodiyotni barqarorlashtirish, jamiyatni demokratlashtirish, aholining erkin farovon turmush tarzini barpo etish

---

<sup>20</sup> Umarova, A. Davlatning moliyaviy rusurklarini shakllantirishda soliqlarning o'rni va ahamiyati. "Moliya ilmiy jurnal". 2015 yil 4-son 74-77 bet

uchun sarflanadigan davlat budjeti daromadlarini shakllantirish maqsadida qonun asosida jamg'ariladigan majburiy to'lov.

Davlat tomonidan xalq ehtiyojlari uchun sarflanadigan mablag'larning asosiy manbai soliqlar hisoblanadi. Soliqlar davlat budjeti daromadlariga aylangandan so'ng qayta taqsimlanib yosh avlodni o'qitib bilim berish, tarbiyalash, sog'ligini saqlash, ularning ma'naviy barkamol bo'lishini ta'minlash, aholi ehtiyojlarini qondirish maqsadida ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish ilm-fan, madaniyat, mudofaa va sport sohalarini rivojlantirish kabi davlat tomonidan rejalashtiriladigan tadbirlarga sarflanadi. Tadbirlari davlat tomonidan amalga oshiriladigan anchagina xarajatlarni talab qiladi. Davlat ana shu ehtiyojlarni qondirish maqsadida qonuniy yo'l bilan soliq to'lovlarini joriy etadi. Demak, bu fikrlardan shunday xulosa chiqadiki, davlat budjetiga tushgan soliq xalq manfaatlariga, shu jumladan, soliq to'lovchilarga ham xizmat qiladi.

Agar davlat budjetiga soliq to'lovchilar tomonidan to'lanidagan soliqlar o'z vaqtida tushmay qolsa xalqning har kungi hayoti uchun zarur bo'lgan ijtimoiy tadbirlar bajarilmay qolishi mumkin. Shuning uchun soliqlarni vaqtida to'lash juda muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi ustuvor yo'nalishlarining tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgani natijasida makroiqtisodiy barqarorlikni va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlari ta'minlanmoqda, aholi daromadlari va farovonligi tobora yuksalmoqda.

Bunda Davlat budjeti daromad qismining talab darajasida to'ldirib borilishi, xarajatlarining esa ijtimoiy yo'naltirilganlik xususiyati muhim omil bo'lmoqda. 2014 yil uchun mo'ljallangan Davlat budjeti ham bundan mustasno bo'lmagan holda uning loyihasi Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarining muhim ustuvor vazifalariga muvofiq shakllantirilganligi alohida e'tirofqa molik.

Zero, mamlakatimizning asosiy moliyaviy hujjati barqaror yuqori o'sish sur'atlarini, makroiqtisodiy barqarorlikni, eksport o'sishining muvozanatli ko'rsatkichlarini, tashqi savdo va to'lov balansini ijobiy saldosini saqlash, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarishlarni modernizatsiya qilishni jadallashtirish hamda uning ko'lamini kengaytirish, texnik va texnologik yangilash, yo'l-transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini jadal sur'atlarda rivojlantirish hamda ijtimoiy sohaning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va rivojlantirish dasturlarini faol amalga oshirishni davom ettirish, qulay investitsion va ishbilarmonlik muhitini yaratishga yo'naltirilgan. Uning eng muhim yo'nalishlari ijtimoiy sohani yanada rivojlantirishni davom ettirish, sog'liqni saqlash sohasini islohot qilish, aholini toza ichimlik suv bilan ta'minlashni kengaytirish, odamlarning jamg'armalari va xarid qobiliyatini oshirish dasturlarini amalga oshirishdir. Shu bilan bir qatorda ehtiyojmand oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning manzilliligini oshirish chora-tadbirlarini ko'rish, davlat tomonidan olingan barcha majburiyatlar ijro etilgan holda budjet va pensiya tizimi barqarorligi va balansliligini yanada ta'minlash, budjet mablag'larlarini rejalashtirish samaradorligini, shu jumladan, tegishli baholash mezonlarini joriy etish, mablag'lardan maqsadli foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, budjet tashkilotlari xodimlarining, jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jadal sur'atlar bilan joriy etish va xarajatlarni normativ rejalashtirish mexanizmini takomillashtirish hisobiga davlat xizmatchilarining soni va shtatini maqbullashtirish, hududlarning daromadlar bazasini oshirish va ularning subvensionligini kamaytirish maqsadida budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish ham dolzarb vazifa hisoblanadi.

Davlat budjetining daromadlari qismini shakllantiruvchi vosita — soliq siyosatining 2016 yildagi asosiy yo'nalishlari sifatida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va iqtisodiyotga soliq yuklamasini yanada pasaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish, mahalliy budjetlarning daromad qismini mustahkamlash va soliq ma'murchiligini takomillashtirishga muhim e'tibor beriladi.

Mamlakatda olib borilayotgan budjet – soliq siyosatining pirovard natijasi va bahosini amaldagi soliq yuki ko‘rsatkichi o‘zida mujassam etadi. Soliq yuki mamlakatda olib borilayotgan soliq siyosatining natijaviy ko‘rsatkichi bo‘lib, iqtisodiyotda muhim o‘rin egallaydi.

Barcha mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlanishida soliqlar budjet daromadlarining asosiy manbai hisoblanadi. Soliqlar davlat tomonidan belgilangan majburiy to‘lovlar bo‘lib, yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladi. Davlat umummilliy dasturlarini amalga oshirish davrida jamg‘armalar tashkil etilishi mumkin bo‘lib, ularga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda majburiy to‘lovlar belgilanadi. Hozirgi davrda respublikamizda quyidagi soliqlar–foyda solig‘i, daromad solig‘i, qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i, yer qa‘ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to‘lovlar, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, mol-mulk solig‘i, yer solig‘i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i, transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqlar amal qilmoqda. Soliqlardan tashqari majburiy to‘lovlar – ijtimoiy jamg‘armalarga majburiy to‘lovlar (yagona ijtimoiy to‘lov, Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari va majburiy ajratmalar), Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy to‘lovlar (majburiy ajratmalar va yig‘imlar), davlat boji, bojxona to‘lovlari, ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko‘rsatish huquqi uchun yig‘imlar ham amal qiladi.

Soliqlar muddati va belgilanish stavkalari bo‘yicha o‘zgarib turadi. Samarasiz bo‘lgan soliqlar va soliq imtiyozlari bekor qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.12.2015.dagi “O‘zbekiston Respublikasining 2016 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-2455 sonli Qaroriga ko‘ra, respublikamizda amal qilayotgan soliqlar bo‘yicha ba’zi o‘zgartirishlar kiritildi. Jismoniy shaxslarni daromad solig‘i stavkasining birinchi shkalasi 2015 yildagi 8,5 foizdan 2016 yilda 7,5 foizga tushirildi. Pensiya jamg‘armasiga majburiy sug‘urta badallari 2015 yildagi 7 foiz

o‘rniga 2016 yilda 7,5 foiz belgilandi. Mahalliy soliqlar va yig‘imlar tarkibida ham birmuncha o‘zgaritirishlar kiritildi. Soliqlarni undirish O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksiga ko‘ra soliq inspeksiyalari tomonidan amalga oshiriladi. Soliq Kodeksi soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni belgilash, joriy etish, hisoblab chiqarish hamda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga va davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lash bilan bog‘liq munosabatlarni, shuningdek soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi. Yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortishda bir qancha imtiyozlar belgilangan va hozirgi sharoitda ushbu belgilangan imtiyozlar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar faoliyatini yanada rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratib bermoqda.

Jahonning ayrim mamlakatlaridagi soliq yuki darajasini mamlakatimizdagi soliq yuki darajasi bilan qiyosiy tahlil qilamizda ko‘ramizki, eng yuqori soliq yuki darajasi Fransiyada (46 foiz), Germaniyada (39 foiz) va Yaponiyada (36,1 foiz) kuzatiladi. Soliq yukining quyi darajalari Ukrainada (27 foiz) va Qozog‘istonda (29 foiz) ekanligi jadvalda aks etgan. Keyingi yillarda mamlakatimizda soliq yuki darajasi 30 foiz atrofida tebranmoqda. Bu oldingi yillarga nisbatan soliq yuki darajasining pasayayotganligini ko‘rsatadi.

Soliq yukining pasayishiga asosan soliq stavkalarining kamayishi o‘zining ta‘sirini ko‘rsatmoqda. Chunki, bugungi kunda hukumatimiz tomonidan to‘g‘ri soliqlar stavkalarini pasaytirish siyosati olib borilmoqda. To‘g‘ri soliqlar stavkalarining pasayishi soliq to‘lovchilar daromadiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir ko‘rsatgani uchun bu soliqlar stavkalari oxirgi yillarda bir necha foizga kamaytirildi. Bu, o‘z navbatida, soliq to‘lovchilar daromadlarining oshishiga va ularning investitsion faoligiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi.

Jahon moliyaviy inqirozining mamlakatimiz iqtisodiyotiga ta‘siri qanday bo‘ladi, degan savol barcha yurtdoshlarimizni qiziqtirishi tabiiydir. Bu borada Prezidentimizning «...tobora chuqurlashib borayotgan jahon moliyaviy inqirozi mamlakatimizga ta‘sir ko‘rsatmaydi, bizni chetlab o‘tadi, degan xulosa chiqarmaslik kerak. Masalani bunday tushunish o‘ta soddalik, aytish mumkinki,

kechirib bo'lmaz xato bo'lur edi. Barchamiz bir haqiqatni anglab etishimiz lozim – O'zbekiston bugun xalqaro hamjamiyatning va global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi»<sup>21</sup> degan so'zlarini yana bir bor esga olish muhimdir. O'z navbatida O'zbekistonning globallasuv jarayonlaridagi ishtiroki ham ushbu inqiroz oqibatlarining ma'lum darajada iqtisodiyotimizga o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkinligidan darak beradi. Rivojlangan davlatlarning soliq qonunchiligida xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga nisbatan turli tuman soliq imtiyozlari qo'llaniladi va ular shuningdek muhim iqtisodiy yo'nalishlarni rivojlanishini rag'batlantirish maqsadida ham keng qo'llaniladi.

Fikrimizcha, investitsion jarayonlarni soliq imtiyozlari orqali rag'batlantirilishi hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda soliq mexanizmini takomillashtirishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- innovatsion faoliyat natijasida yangi turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi sohalarga real soliq majburiyatlarini kamaytiruvchi rag'batlantirish tizimini qo'llash;

- mamlakat hududlarning daromadlarini shakllantirish borasidagi mustaqilligini oshirish maqsadida ularning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib manzilli soliq imtiyozlarini qo'llash;

- qishloq xo'jaligi sohasida qayta ishlash jarayonini rivojlantirishga xizmat qiluvchi xorijiy investitsiyalar uchun soliq imtiyozlarini kengaytirish.

### **3.2. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida soliqlarning budjet daromadlarini tashkil qilishdagi ahamiyatini oshirish masalalari**

O'zbekiston Respublikasining bozor munosabatlariga o'tish xususiyatlaridan biri davlatning iqtisodiy o'zgarishlarning tashabbuskori va bosh islohotchisi qilib belgilanganligidir. Iqtisodiy islohotlar boshlangan to hozirgi davrga qadar

---

<sup>21</sup> Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009, 11-b.

respublikamizda iqtisodiy islohatlar yangi bosqichga ko'tarildi. Bu esa o'z navbatida iqtisodiy, shu jumladan soliq siyosati strategiyasida va taktikasida ham bir qancha o'zgarishlarni amalga oshirishni talab etadi.

Xozirgi soliq siyosati strategiyasi korxonalar zimmasidagi soliq yukini keskin kamaytirishdir. Daromad solig'ining yuqori bo'lishi korxonalarni o'z mablag'larini o'zi ishlab chiqarishni rivojlantirishga, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan qayta qurollantirishga, o'z aylanma mablag'larini to'ldirishga sarflashiga to'sqinlik qiladi. Bu esa ishlab chiqarishning pasayishiga, moliya tizimini barbod bo'lishiga, ijtimoiy muammolarni keskinlashuviga olib keladi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etayotgan bir sharoitda O'zbekistonning 2014 yilgi Davlat budjeti makroiqtisodiy barqarorlikni hamda mamlakat yalpi ichki mahsulotining yuqori sur'at bilan o'sishini ta'minlashga, diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirishga, ayniqsa, aholi farovonligi va turmush darajasini yanada yuksaltirishga qaratilganligi alohida e'tirofqa molikdir. Ushbu maqsadlarga erishish uchun kelgusi yilgi Davlat budjeti Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi hamda joriy yil 18 yanvarda hukumat majlisida Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturining asosiy ustuvor vazifalari hisobga olingan holda ishlab chiqilgan.

Davlat budjeti hamda soliq va budget siyosatining asosiy yo'nalishlariga ko'ra, kelgusi yilda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va aholi uchun soliq yukini pasaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish, mahalliy budjetlarning daromad qismini oshirish va mustahkamlash, soliq solish ob'ektlarini kamaytirib ko'rsatish va yashirish holatlariga chek qo'yishga yo'naltirilgan soliq ma'murchiligi chora-tadbirlarini kuchaytirish, ayniqsa, ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy muhofaza qilish xarajatlarining ustuvorligini saqlab qolish kabi muhim vazifalar amaliyoti ko'zda tutilgan.

Bundan tashqari, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining suv xo'jaligi ob'ektlarini ta'mirlash, qurish va rekonstruksiya qilish, erlarning meliorativ



holatini yaxshilashga, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma ob'ektlari qurilishiga, shu jumladan, avtomobil yo'llari, qishloq joylarda barpo etilayotgan yangi uy-joylar massivlari uchun suv ta'minoti ob'ektlari va boshqa ijtimoiy ob'ektlarga markazlashtirilgan investitsiyalardan zarur mablag'lar ajratiladi.

Soliq va budjet siyosatining asosiy yo'nalishlari va Davlat budjetining asosiy parametrlari mamlakatimizda davom etayotgan barcha jabhadagi islohotlarni yanada chuqurlashtirishga, xalq farovonligini va daromadlarini izchil oshirish bo'yicha strategik dasturlarning ijrosini ta'minlashga, iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolishga, faol investitsiya siyosatini jadallashtirishga, shuningdek, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilashga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga xizmat qilishini alohida ta'kidlab o'tish kerak.

O'tgan yili soliq siyosati, ya'ni davlatning soliq sohasidagi barcha tadbirlarni rejalashtirish, qonun, farmon va qarorlar ijrosini ta'minlash hamda uni tashkil qilish borasida qator chora tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, 2015 yilda mamlakatimiz xo'jalik sub'ektlariga keng ko'lamli qo'shimcha soliq va bojxona imtiyozlari berildi.

Rag'bat, imkoniyat va imtiyoz bor joyda taraqqiyot bo'lishi turgan gap. Zotan, hozirgi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotida etakchi kuchga aylanib borayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari ham ayni shu omillar evaziga ulkan muvaffaqiyatlar qo'lga kiritilayotir.

Mamlakatimiz soliq siyosatining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilarda o'z askini topdi:

1. Soliq tushumlarining umumiy hajmida egri soliqlarning salmog'ining yuqoriligi;
2. Resurs soliqlari salmog'ining oshib borishi;
3. Soliq ma'murchiligining takomillashtirilishi;
4. Soliq yukini yildan-yilga kamaytirish tendensiyasi;
5. Yuridik shaxslarni eksportga mahsulot ishlab chiqarishi va valyutaga sotishni rag'batlantirish;

6. Kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun soddalashtirilgan soliq tizimining joriy etilishi.

Soliqlarning budget tizimi bo'g'inlari o'rtasida taqsimlanish tartibini takomillashtirish davlat budgetining daromad bazasini shakllantirish nuqtai-nazaridan muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Buning sababi shundaki, asosiy va barqaror tushum manbai bo'lgan soliq turlarini mahalliy budgetlarga o'z daromad bazasini shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Va, aksincha, mahalliy budgetlarning daromad bazasini asosan tartibga soluvchi daromadlar hisobidan shakllanish tartibini yuzaga keltirishi mahalliy moliya organlarida loqaydlikni yuzaga keltirishi hamda soliq undirish samaradorligini pasayishiga olib kelishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirishning hozirgi bosqichida hukumat iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri mahalliy boshqaruv organlarini jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiyotidagi rolini oshirish hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, mahalliy boshqaruv organlarining markazlashgan pul fondi bo'lgan mahalliy budgetlarning daromad bazasini mustahkamlashni taqozo etadi. Bu jarayonda markaziy o'rinni shubhasiz, soliq tushumlarini respublika budgeti va mahalliy budgetlar o'rtasida taqsimlash tartibini takomillashtirish masalasi egallaydi.

Har bir mahalliy budgetning tartibga soluvchi daromadlarining miqdori kamida uch moliya yili mobaynida o'zgarmaydigan normativ ko'rsatkichlar shaklida belgilab qo'yilishi maqsadga muvofiqdir. Mazkur normativlarni ishlab chiqish uchun asos qilib, ilmiy jihatdan asoslangan ijtimoiy normativlar olinishi lozim. Bunday normativlar rivojlangan xorijiy mamlakatlar amaliyotida keng qo'llaniladi va ular budget xarajatlarining oqilona darajasini belgilash imkonini beradi.

Davlat budgeti daromadlarini o'z vaqtida va to'liq kelib tushmasligining sabablari aniqlangan va ularning asosiylari quyidagilardan iborat ekanligi ko'rsatilgan:

- 1) soliq yukining nisbatan yuqori darajada ekanligi;
- 2) korxonalar o'rtasidagi o'zaro debitorlik – kreditorlik qarzlarning muttasil o'sish tendensiyasiga egaligi;
- 3) bank tizimining kreditlaridan korxonalar faoliyatida keng ko'lamda foydalanish uchun tegishli shart-sharoitlarning etarli darajada mavjud emasligi;
- 4) budjetga to'lovlarni o'z vaqtida undirish tadbirlari samaradorlik darajasining pastligi;
- 5) davlat tomonidan moliyaviy holati nobarqaror bo'lgan bir qator korxonalarga nisbatan qat'iy iqtisodiy jazo choralarining o'z vaqtida qo'llanilmasligi.

Bizning fikrimizcha, davlat budjetiga to'lovlarni o'z vaqtida va to'liq undirishni ta'minlash uchun quyidagi tadbirlarning amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir:

1. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ichki soliq nazoratini kuchaytirish.
2. Davlat soliq nazoratini takomillashtirish.

Budjet daromadlarini oqilona shakllantirish nuqtai–nazaridan mamlakatimizdagi xo'jalik sub'ektlarining investitsion faolligini oshirishda soliqlar ta'sirini kuchaytirish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir:

1. Mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajat turlarining darajasini mo'tadillashtirish maqsadida bank kreditlari bo'yicha foiz to'lovlarini Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasidan kelib chiqqan holda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxiga kiritishni joriy qilish.

2. Xo'jalik sub'ektlarining investitsion faolligini oshirish maqsadida ularning soliq to'lovlari hajmida asosiy o'rinni egallaydigan soliqlarning stavkalarini oqilona darajaga keltirish.

3. Qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i stavkalarining tabaqalashtirish darajasini oshirish.

4. Xo‘jalik sub’ektlarining investitsion xarajatlarini moliyalashtirishning asosiy manbalaridan biri bo‘lgan amortizatsiya ajratmalaridan foydalanish samaradorligini oshirish.

Davlat budjeti daromadlari barqarorligini ta’minlash konsepsiyasi modeli asosiga, avvalo, davlatning ijtimoiy vazifalari va budjet majburiyatlarining o‘shib borishi sharoitida uning moliyaviy asoslarini to‘g‘ri taxminlashtirish va shakllantirish masalasi hamda uning istiqbollarida investitsion faollikni rag‘batlantirish omili qo‘yilgan.

Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda soliqlarning ahamiyatini oshirish zamonaviy soliq siyostining asosiy vazifalaridan birihisoblani, mamlakat soliq siyosatini takomillashtirish davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda soliq tizimini takomillashtirishda resurs soliqlariga ustuvor ahamiyat qaratilishiga qaramasdan, amaldagi soliqlar tizimining tabiiy resurslardan samarali foydalanishni rag‘batlantirishga ta’siri unchalik sezilmayapti. Buning asosiy sabablarini amaldagi tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog‘liq soliqlar mexanizmidagi muammolarning mavjudligi va soliqlarning rag‘batlantiruvchi roli hamda ularning tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga bo‘lgan ta’sirchanligi etarli darajada emasligi bilan izohlash mumkin.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalashning hozirgi bosqichidagi talablar resurs soliqlari uchun ikki muhim vazifani keltirib chiqaradi, ya’ni ularning birinchisi budjet tizimining daromadlar qismini moliyaviy mablag‘lar bilan muntazam ravishda shakllantirish bo‘lsa, ikkinchisi esa cheklangan tabiiy resurslardan samarali foydalanish va bu jarayonni rag‘batlantiruvchi mexanizmining ta’sirchanligini ta’minlashdan iboratdir.

Shu bois, respublikada xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning tabiiy resurslardan samarali foydalanishini soliqlar vositasida rag‘batlantirish, ularning ahamiyatini oshirishga doir masalalar dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi.

Soliqlarning samarali mexanizmini shakllantirishning jahon amaliyoti va respublikamizning mustaqillik yillarida bu boradagi tajribalaridan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, soliq siyosati ayni paytda egiluvchan, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga monand bo'lishi lozim. Aks holda soliq siyosati xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va davlat manfaatlarining uyg'unlashishiga emas, balki mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omilga aylanishi mumkin.

Mamlakatimiz soliq tizimini isloh qilishda tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun soliqlarga ahamiyatni kamaytirmagan holda, bizningcha, bu borada ular bilan bog'liq quyidagilarga ham ustuvor yo'nalish sifatida qarash maqsadga muvofiqdir:

- tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun soliqlarning stavkalarini qayta ko'rib chiqish;

- tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun soliqlarning tartibga soluvchi va rag'batlantiruvchi mezonlarini ishlab chiqish;

- yagona soliq tizimiga o'tgan xo'jalik sub'ektlarining tabiiy resurslardan foydalanishni tartibga soluvchi iqtisodiy mexanizmini yaratish;

- soliqlarning resurslarni tejashga, tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan ahamiyatini yanada kuchaytirish lozim.

Bugungi kunda mamlakatimizda soliq tizimining ustuvor yo'nalishlari sifatida soliqlar bo'yicha asosiy yuk tabiiy, mineral-xom ashyo, yer-suv va boshqa zaxiralardan tejamkorlik bilan va oqilona foydalanishni rag'batlantiruvchi resurs soliqlariga tushishini ta'minlash, soliqqa tortish masalasida xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasidan foydalanish hamda soliq tizimining nafaqat soliqlarni undirish, balki birinchi galda, rag'batlantirish xususiyatiga ega bo'lishligini ta'minlash, doimiy ravishda amaldagi soliq qonunchiligini tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilib, shu asosda uni yanada soddalashtirish, soliqlarni unifikatsiya qilish, soliq yukini engillashtirish, soliq boshqaruvini takomillashtirish va erkinlashtirish borasida masalalarga qaratilishi lozim.

## **Uchinchi bob bo'yicha xulosalar**

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida soliqlarning budget daromadlarini tashkil qilishdagi ahamiyatini oshirish yuzasidan ishlab chiqilgan xulosalar:

– mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi ustuvor yo'nalishlarining tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgani natijasida makroiqtisodiy barqarorlikni va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlari ta'minlanmoqda, aholi daromadlari va farovonligi tobora yuksalmoqda.

– soliq siyosatini takomillashtirish, soliqlarning iqtisodiyotga rag'batlantiruvchi ta'sirini kuchaytirish maqsadida soliq tizimini ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy, tabiiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan, to'plangan mol-mulkdan samarali foydalanishga rag'batlantiruvchi ta'sirini oshirishga qaratilgan islohotlar ustuvor ahamiyat kasb etadi.

– soliqlarning samarali mexanizmini shakllantirishning jahon amaliyoti va respublikamizning mustaqillik yillarida bu boradagi tajribalaridan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, soliq siyosati ayni paytda egiluvchan, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga monand bo'lishi lozim.

– soliqlarning budget tizimi bo'g'inlari o'rtasida taqsimlanish tartibini takomillashtirish davlat budgetining daromad bazasini shakllantirish nuqtai-nazaridan muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Buning sababi shundaki, asosiy va barqaror tushum manbai bo'lgan soliq turlarini mahalliy budgetlarga o'z daromad bazasini shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Va, aksincha, mahalliy budgetlarning daromad bazasini asosan tartibga soluvchi daromadlar hisobidan shakllanish tartibini yuzaga keltirishi mahalliy moliya organlarida loqaydlikni yuzaga keltirishi hamda soliq undirish samaradorligini pasayishiga olib kelishi mumkin.

– soliqlarning samarali mexanizmini shakllantirishning jahon amaliyoti va respublikamizning mustaqillik yillarida bu boradagi tajribalaridan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, soliq siyosati ayni paytda egiluvchan, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga monand bo'lishi lozim.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat budjeti solikli daromadlarini shakllantirish bilan bog‘liq muammolarni o‘rganish va tahlil qilish natijasida quyidagi *xulosalarga* kelindi.

**1.** O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti ijtimoiy xarajatlarining o‘shish tendensiyasiga ega ekanligi va hukumat yirik investitsion xarajatlarining mavjudligini hisobga olib davlat budjeti daromadlarining tarkibida qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar summasining barqaror salmog‘ini ta‘minlash zarur.

**2.** Mamlakatimiz davlat budjeti daromadlarining umumiy hajmida QQS, jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliq, aksiz solig‘i, bojxona boji va korxonalarining foydasidan olinadigan soliqlar bo‘yicha tushum summalari yuqori salmoqni egallaydi. Buning asosiy sababi shundaki, o‘tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda egri soliqlar nisbatan o‘zining fiskallik ahamiyatini saqlab qoladi.

**3.** Respublikamiz davlat budjeti daromadlarining soliq tushumlari tarkibida tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun soliqlar, ayniqsa atrof tabiiy muhitni ifloslantirish bilan bog‘liq soliqlarga ustuvor ahamiyat qaratilishi, ularni davlat budjeti daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyatini oshirishga qaratilgan islohotlar mamlakat soliq tizimini takomillashtirishdagi ustuvor yo‘nalish sifatida qaralishi lozim.

**4.** Davlat budjetiga to‘lovlarni o‘z vaqtida va to‘liq undirishini ta‘minlash maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning ichki soliq nazoratini kuchaytirish;
- davlat soliq nazoratini takomillashtirish;

- umumdavlat soliqlarini asosiy to‘lovchilar hisoblangan korxonalar faoliyatini joylarda tekshirishning samaradorligini oshirish.

**5.** Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning konseptual asoslarini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat bo‘lmog‘i lozim:

- O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda hukumatning qimmatli qog'ozlarini sotishdan olinadigan tushumlar summasini ko'paytirish;

- O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlarining tarkibida to'g'ri soliqlardan olingan tushumlarning salmog'ini egri soliqlardan olingan tushumlarning salmog'iga nisbatan yuqoriligini ta'minlash;

- egri soliqlarning iqtisodiy funksiyasidan to'laqonli tarzda foydalanishni ta'minlash orqali to'g'ri soliqlardan olinadigan budjet daromadlari summasini ko'paytirishga erishish;

- respublikamiz soliq amaliyotida qo'llanilayotgan soliq imtiyozlarini qayta ko'rib chiqish va asossiz belgilangan hamda kam samarali imtiyozlarni bekor qilish.

Ushbu xulosalardan kelib chiqib, davlat budjeti solikli daromadlarini shakllantirish jarayonini takomillashtirishga qaratilgan *takliflar* quyidagilardan iborat:

**1.** Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar zimmasidagi soliq yukini hamda tekshirishlar sonini kamaytirish maqsadga muvofiq. Bu borada eng asosiysi, iqtisodiyotning yashirin sektorini kamaytirish lozim. Bu o'z navbatida davlat budjetiga kelib tushadigan soliq miqdorini oshirishga xizmat qiladi.

**2.** Soliqqa tortish ob'ekti bir xil bo'lgan yuridik shaxalardan olinadigan foyda solig'i hamda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini unifikatsiya qilish maqsadga muvofiq.

**3.** Kichik biznes sub'ektlarini maqomini belgilash uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida asosan xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan ishlayotgan ishchilar soni mezon qilib olingan. Lekin aksariyat rivojlangan mamlakatlarda korxonalarining aylanma mablag'lari hajmi kichik korxonalar maqomini belgilashga mezon qilib olinadi. Bizning soliq amaliyotimizga ham ushbu uslubiyatni qo'llash o'zining samarasini beradi.



4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha rivojlangan davlatlarda amal qiluvchi soliq elementlarini, jumladan, oila daromadlaridan kelib chiqib fuqarolarning shaxsiy ehtiyojlari va moliyaviy holatini hisobga olish asosida bosqichma bosqich joriy etish maqsadga muvofiqdir.

5. Jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortishni takomillashtirish maqsadga muvofiq. Bunda birinchi bosqichda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalarini uch pog'onali tizimidan ikki pog'onali tizimiga o'tish va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidan kelib chiqib, ikkinchi bosqichda daromad solig'ining yagona savkasiga o'tish muhim ahamiyatga ega. Buning natijasida jismoniy shaxslarga me'natga haq to'lash shaklida berilayotgan ish haqini yashirishning oldi olinishi bilan birga ular uchun soliq yukining kamayishiga erishish mumkin.

6. To'g'ri soliqlarning davlat budjeti daromadlari hajmidagi salmog'ini oshirish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish zarur:

- to'g'ri soliqlarning davlat budjeti daromadlarining umumiy hajmidagi salmog'ining pasayish tendensiyasiga barham berish uchun amaldagi soliq imtiyozlarini va to'lovsizlik, ya'ni budjetdan qarzdorlik muammosini qayta ko'rib chiqish;

- yer solig'ining stavkalarini belgilashda qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilari uchun foydalaniladigan yerdan olinadigan daromadning miqdorini hisobga olish;

- yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining rag'batlantiruvchilik rolini oshirish maqsadida soliqqa tortilmaydigan minimum miqdorini joriy qilish;

7. Qo'shilgan qiymat solig'ini undirish yuzasidan Evropa Ittifoqi davlatlarining ilg'or tajribalaridan respublikamiz sharoitida foydalanishni yo'lga qo'yish lozim. Xususan, soliq stavkalarini ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tovarlarning turlari bo'yicha tabaqalashtirish va soliqqa tortilmaydigan oborotni belgilash muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### **I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari.**

#### **Normativ-huquqiy hujjatlar:**

1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: - T.: "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2014 y. -40 B.

1.2. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi: Rasmiy nashr-O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi - T.: "Adolat", 2015 y. -432 B.

1.3. O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonuni. 1997 yil, 29 avgust.

1.4. O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini davlat nazorati to'g'risida"gi Qonuni. 1998 yil 24 dekabr.

1.5. O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi. - T.: "Adolat", 2014 y.

1.6. O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 31 dekabdagi "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zR-398-sonli Qonuni.

1.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 14 iyundagi PF-3619-sonli "Tadbirkorlik sub'ektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

1.8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 15 iyundagi "Tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'risida"gi Farmoni.

1.9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 20 iyundagi PF-3620-sonli "Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.

1.10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 28 noyabrdagi “Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo‘llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta‘minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida”gi PF-4058 sonli Farmoni.

1.11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 2 dekabrdagi “Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-4059 sonli Farmoni.

1.12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 30 avgustdagi PF 3305-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 9 aprel “Xususiy tadbirkorlik, kichik va o‘rta biznes rivojlanishini yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi Farmoni.

1.13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 11 apreldagi “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishini rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-3594-sonli Farmoni.

1.14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 28 yanvardagi “Mahalliy nooziq-ovqat iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish kengaytirilishini rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1050 sonli Qarori.

1.15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 apreldagi “Dehqon bozorlari va savdo komplekslari faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1326 sonli Qarori.

1.16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli “2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori reyting ko‘rsatkichlarga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida” gi Qarori.

1.17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 15 maydagi “Tadbirkorlik faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1112-sonli Qarori.

1.18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida”gi 1449-sonli Qarori (2010 yil 24 dekabr).

1.19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida”gi 1675-sonli Qarori (2011 yil 30 dekabr).

1.20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida”gi 1887-sonli Qarori (2012 yil 25 dekabr).

1.21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida”gi 2099-sonli Qarori (2013 yil 25 dekabr).

1.22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida”gi 2270-sonli Qarori (2014 yil 4 dekabr).

1.23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2016 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida”gi 2455-sonli Qarori (2015 yil 22 dekabr).

1.24. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 8 yanvardagi “Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1257 sonli Qarori.

1.25. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1995 yil 28 avgustdagi Qarori bilan «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida»gi 344-sonli Qarori.

1.26. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 4 martdagi «Fermerlarni, xususiy tadbirkorlarni hamda kichik biznes boshqa sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 75-sonli Qarori.

1.27. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 11 oktyabrdagi «Kichik tadbirkorlik (biznes) sub’ektlariga tegishli bo‘lgan

korxonalar va tashkilotlar klassifikatsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi 439-sonli Qarori.

### **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari va ma'ruzalari**

1.28. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. -Toshkent.: "O'zbekiston" NMIU, 1995 y. -B. 269.

1.29. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-Toshkent.: "O'zbekiston" NMIU, 1997 y.-B. 326.

1.30. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. -Toshkent.: "O'zbekiston" NMIU, 1998. -B. 686.

1.31. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. -Toshkent.: "O'zbekiston" NMIU, 1999 y. — B. 412.

1.32. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. —Toshkent.: "O'zbekiston" NMIU, 2000 - B. 352.

1.33. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. -T.: "O'zbekiston" NMIU, 2005.-B. 528.

1.34. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokrat-lashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. -Toshkent.: "O'zbekiston" NMIU, 2005. - B. 96.

1.35. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. -Toshkent.: "O'zbekiston" NMIU, 2007. -B. 48.

1.36. Karimov I.A. Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash-barcha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2008. - B. 64.

1.37. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch. -T.: «Ma'naviyat», 2008. -B. 176.

1.38. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish - davr talabi // Xalq soʻzi, 2009 yil 14 fevral.

1.39. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, Oʻzbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yoʻllari va choralari / - T.: “Oʻzbekiston” NMIU, 2009. -B. 56.

1.40. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: “Oʻzbekiston” NMIU, 2010. -80 b.

1.41. Karimov I.A. “Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi” 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlan-tirish yakunlari va 2011 yilga moʻljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yoʻnalishlariga bagʻishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi maʼruzasi.

1.42. Karimov I.A. “2012-yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga koʻtaradigan yil boʻladi” 2011 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2012 yilga moʻljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yoʻnalishlariga bagʻishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi maʼruzasi.

1.43. Karimov I.A. “Bosh maqsadimiz-keng koʻlamli islohotlar va modernizatsiya yoʻlini qatʼiyat bilan davom ettirish” 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilga moʻljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yoʻnalishlariga bagʻishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi maʼruzasi.

1.44. Karimov I.A. 2014 yil yuqori oʻsish surʼatlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, oʻzini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili boʻladi. –T.: “Oʻzbekiston”, 2014. -64 b.

1.45. Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy oʻzgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yoʻl ochib berish – ustuvor vazifamizdir. – T.: “Oʻzbekiston”, 2015 yil. -67 b.

1.46. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 88 b.

## **II. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar.**

### **Darslik va o'quv adabiyotlari:**

2.1. Vahobov A., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. –T.: Sharq, 2009. -526 b.

2.2. Vaxobov A., Srojiddinova Z. O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti. O'quv qo'llanma. –T.: 2007 y.

2.3. Jo'raev A.S. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo'llari. / Monografiya. "Fan" nashriyoti. 2004 y.

2.4. Jo'raev A., Safarov G'. Soliq nazariyasi -T.: TMI, 2008. -210 b.

2.5. Jo'raev A., Shirinov S. Soliq statistikasi va prognozi. O'quv qo'llanma. / "IQTISOD-MOLIYA" -T.: 2015y

2.6. Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot. / "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" ., 2005y. -544 b.

2.7. Malikov T.S. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. –T.: Akademiya, 2002. -204 b.

2.8. Meyliev O.R. Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda soliqlarning o'rni. -T.: Tamaddun, 2013. -136 b.

2.9. Налоги в условиях экономической интеграции. / В.С. Бард и др. под ред. проф. В.С. Барда и Л.П. Павловой. –М.: КНОРУС, 2013. -288 с.

2.10. Налоги и налогообложение. Учебник для вузов /Под ред. Д.Г. Черника. М: Юнита-Дана, 2015. -345 с.

2.11. Налоги и налоговое право. /Под ред. А.В. Брызгалина. –М.:

Аналитика-Пресс, 2014. -608 с.

2.12. Налоги и налогообложение./Тарасова В.Ф. и др.–М.:Финансы и статистика, -2015.

2.13. Русакова И.Г., Кашина В.А. Налоги и налогообложение. -М.: ЮНИТИ, -2014.

2.14. Toshmurodova V. Soliqlar vositasida iqtisodiyotni boshqarish mexanizmi. /Monografiya. –T.: “YAngi asr avlodi”, 2002. -127 b.

2.15. Толкушин А.В. Налоги и налогообложения: Энциклопеческий словарь. –М.: -2012.

2.16. Финансы. /Под ред. Л.А. Дробозиной –М.: ЮНИТИ, 2013. -350 с.

2.17. Черник Д.Г. Налоги. 8-е издание –М.: Финансы и статистика, 2014. - 430

2.18. Юткина Т.Ф. Налоги и налогообложение: Учебник. 8-е изд., перераб. и доп. –М.: ИНФРА-М, 2014. -576 с.

2.19. Yahyoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. –T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003. -247 b.

2.20. Toshmatov Sh. Qo‘shilgan qiymat solig‘i. O‘quv qo‘llanma. “Iqtisodiyot va huquq dunyosi”; 2004 15-bet

2.21. Toshmatov Sh. Korxonalarni rivojlantirishda soliqlarni roli. -T., “Fan va texnologiya”- 2008, 204 b.

2.22. Yuldashev A. Soliq va soliqqa tortish. O‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan/ A. Yuldashev. - T.: " Fan texnologiya", 2007. - 128 s

2.23. Jo‘raev A., Toshmatov SH., Abduraxmonov O. Soliqlar va soliqqa tortish. O‘quv qo‘llanma, –T.: “Norma”, 2009. –184 b.

2.24. Jo‘raev A. Yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. O‘quv qo‘llanma. – T.: “O‘qituvchi” nashriyoti, 2007. –232 b.

2.25. Urazov K. Investitsiyalarning buxgalteriya hisobi va soliqqa tortilishi. – T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi”, 2003. – 164 b.



- 2.26. Toshmurodova B., Elmirzaev S. Korporativ soliq menejmenti. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Mumtoz so‘z”, 2010
- 2.27. Мандрошченко О., Пинская М. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. –М.: “Дашков и К”, 2010
- 2.28. Черник Д. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. – М.: “Юнити-Дана”, 2010
- 2.29. Жидкова Е. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. –М.: “Эксмо”, 2010
- 2.30. Тарасова В., Владика М. Налоги и налогообложение. Учебник. –М.: “Кнорус”. 2009
- 2.31. Пансков В.Г., Князев В.Г. Налоги и налогообложение: Учебник для вузов. –М.: “МСФЕР”, 2009
- 2.32. Перов А.В., Толкушкин А.В. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. -М.: “Юрайт”. 2015
- 2.33. Миляков Н.В. Налоги и налогообложения: Учебник. -М.: “Инфра-М”, 2014
- 2.34. Налоги в условиях экономической интеграции. //Под ред. проф. В.С.Барда и Л.П.Павловой. -М.: “Кнорус”, 2015
- 2.35. Александров И. Налоговые системы России и зарубежных стран. - М.: “Бератов-Пресс”, 2013
- 2.36. G‘ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. - Toshkent: “SHarq”, 2002.-B. 204.
- 2.37. Mamanazarov A.B. Soliq siyosati. -T.: «Moliya», 2003. -B. 148.
- 2.38. To‘raev Sh. Soliqqa tortishni tahlil etishning dolzarb masalalari. -T.: “Akademiya”, 2005. - B. 130
- 2.39. O‘rmonov J.J. Xorijiy mamlakatlar soliq tizimi: O‘quv qo‘llanma - T.: Soliq akademiyasi, «Dizayin-Print», 2007. -B. 202.
- 2.40. Qurbonov Z.N. Soliq auditi.-T.: «Fan va texnologiyalar», 2007.-B. 120.
- 2.41. Haydarov N.H. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O‘quv

qo‘llanma. - T.: “Akademiya”, 2007. - B. 214.

### **Ilmiy jurnallardagi maqolalar va tezislar:**

2.42. Jo‘raev A. Daromad, budjet va soliqlar.//Soliq to‘lovchining jurnali. — Toshkent, 2004. №4, - B. 27.

2.43. Umarova.A. Davlatning moliyaviy rusurslarini shakillantirishda soliqlarning o‘rni va ahamiyati. “Moliya ilmiy jurnal”. 2015 yil 4-son B.74-77.

2.44. Musalimov Sh. Budjetlar o‘rtasida soliqlarni taqsimlashning xorij tajribasi va undan foydalanish masalalari.// Moliya.-Toshkent, 2013.-№6. –B. 93-96.

2.45. Pardaev U. Davlat budjeti solikli daromadlarini rejalashtirishda soliq potensialidan foydalanish // Moliya .-Toshkent, 2013. №5 -B. 65-70

2.46. Toshmatova R.B Budjetning solikli daromadlarini rejalashtirishda soliq prognozining tutgan o‘rni. // Moliya .-Toshkent, 2013. №6 -B. 61-64

2.47. Gadoev E. Soliq siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlari. // Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida soliqlarning rag‘batlantiruvchanlik rolini yanada oshirish yo‘llari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi tezislar to‘plami. - Toshkent, 2014. - B. 6-13.

2.48. Niyazmetov I. Soliq siyosatining 2014 yilgi asosiy yo‘nalishlari – o‘zini oqlagan soliq islohotlari strategiyasining izchil davomi sifatida. // Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida soliqlarning rag‘batlantiruvchanlik rolini yanada oshirish yo‘llari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi tezislar to‘plami. - Toshkent, 2014. - B. 39-42

2.49. Xakimov O. Globallashuv sharoitida O‘zbekistonning makroiqtisodiy holati. // Milliy iqtisodiyot raqobatdoshligini oshirishda davlat moliyaviy resurslarini oqilona boshqarishning dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi tezislar to‘plami. - Toshkent, 2016 yil. -B 20-23.

### **III. Davriy nashrlar, statistik to‘plamlar va hisobotlar.**

- 3.1. O‘zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2010 yil. -T.:2010.-№5.
- 3.2. O‘zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2011 yil. -T.:2012.-№11.
- 3.3. O‘zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2012 yil. -T.:2013.-№7.
- 3.4. O‘zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2013 yil. -T.:2014.-№9.
- 3.5. O‘zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2014 yil. -T.:2015.-№7.
- 3.6. O‘zbekiston statistik axborotnomasi. - Toshkent, 2010 - 2015.

### **IV. Internet saytlari:**

- 4.1. <http://www.gov.uz> - O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali
- 4.2. <http://www.soliq.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi
- 4.3. <http://www.lex.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi huquqiy axborot bilan ta’minlash markazi
- 4.4. <http://www.mf.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi

## ILOVALAR

**1-ilova**

**Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha**

**2016 yilning 1 yanvaridan boshlab mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar uchun foyda solig'i bo'yicha rentabellik darajasidan kelib chiqib soliq stavkalari joriy qilindi.**

Farqlashtirish	2015 yil	2016 yil	Farqi
Rentabellik darajasi 20 foizgacha	7,5 %	7,5 %	O'zgarmagan
Rentabellik darajasi 20 foizdan yuqori bo'lgan foyda summasiga	7,5 %	<b>50 %</b>	+42,5 % punkt

## Yagona soliq to'lovi bo'yicha

To'lovchilar	2015 yil	2016 yil
Iqtisodiyotning barcha tarmoqlari korxonalari ayrim korxonalardan tashqari	6 %	5 %
Bojxona rasmiylashtiruv bo'yicha xizmatlarni ko'rsatadigan yuridik shaxslar (bojxona brokerlari)	6 %	5 %
Alkogolli va tamaki mahsulotlari, benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gazni realizatsiya qiluvchi korxonalar	4/2/1 foiz (joylashgan joyiga qarab)	4 foiz

**Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha**

<b>Soliq solinadigan daromad</b>	<b>2015 yil</b>	<b>2016 yil</b>
	Soliq stavkasi	Soliq stavkasi
eng kam ish haqining 1 baravarigacha miqdorda	0 %	0 %
eng kam ish haqining 1 baravaridan (+1 so'm) 5 baravarigacha miqdorda	8,5 %	7,5 %
eng kam ish haqining 5 baravaridan (+1 so'm) 10 baravarigacha miqdorda	17 %	17 %
eng kam ish haqining 10 baravari (+1 so'm) va undan yuqori miqdorda	23 %	23 %

*Izoh: Bunda, soliq solish shkalasi 2016 yil 1 yanvarga belgilangan eng kam ish haqi miqdoridan (130 240 so'm) kelib chiqib aniqlanadi va eng kam ish haqi miqdorining yil davomida o'zgarishiga qaramasdan qayta ko'rib chiqilmaydi.*

**4-ilova**

**Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha**

<b>Noruda qurilish materiallari:</b>	<b>Soliq stavkasi % da</b>
--------------------------------------	----------------------------

	2015 yil	2016 yil
Tsement xom ashyosi	3,5	<b>5</b>
Tabiiy bezaktoshdan bloklar	3,5	
Marmar ushog'i	3,8	
Gips toshi, ganch	5,3	
Keramzit xom ashyosi	3,5	
G'isht-cherepitsa xom ashyosi (qumoqsimon, lyossimon jinslar, zichlovchi sifatida lyosslar, qumlar va boshqalar)	3,5	
Gips va angidrit	4,0	
Arralanadigan, xarsangtosh va shag'al uchun toshlar	3,8	
Qurilish qumlari	4,0	
Tosh-shag'al aralashmasi, shag'al aralashmasi, mayda toshlar, shag'al	4,0	
Qumtoşlar	3,5	
Chig'anoq ohaktosh	3,5	
Slanetslar	3,5	
Boshqa keng tarqalgan foydali qazilmalar (mergellar, argelitar, amvritlar va boshqalar)	3,5	

**5-ilova**

**2016 yil uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun**



### soliq stavkalari

<b>To'lovchilar</b>	<b>1 kub metr uchun stavka (so'm)</b>	
	<b>Yer usti suv resurslari manbalari</b>	<b>Yer osti suv resurslari manbalari</b>
1. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (2-4-bandlarda ko'rsatilganlaridan tashqari) dehqon xo'jaliklari (yuridik va jismoniy shaxslar) hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida suvdan foydalanadigan jismoniy shaxslar	71,2	90,4
2. Elektrostantsiyalar	20,6	30,6
3. Kommunal xizmat ko'rsatish korxonalari	39,1	50,5
4. Alkogolsiz ichimliklarni ishlab chiqaruvchi korxonalar		
-alkogolsiz ichimliklarni ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi bo'yicha	11 500	11 500
-boshqa maqsadlarda	71,2	90,4